25. Forslar tor-mor etilganidan keyin Afinaning asosiy raqibi qaysi davlat bo'lib qolgan?
A) Sparta
B) Makedoniya
C) Fiva
D) Rim
26. Kim Afinadan to Pirey dengiz portiga mudofaa devorlari qurish to'grisida buyruq bergan edi?
A) Solon
B) Miltiad
C) Kserks
D) Perikl
27. Afinaliklar homiysi qaysi iloha bo'lganligini aniqlang?
A) Nika
B) Afina
C) Artemida
D) Afrotida

Shuhratbek.uz

## 27-Yunon-fors urushlari (15)

### Testlar

1. Mil.avv.V asr boshlarida Yunonistonga qaysi davlat tahdid sola boshlagan?
A) Giksoslar davlati
B) Sparta davlati
C) Forslar davlati
D) Rim davlati
2. Yunon-fors urushlari qaysi yillarda bo'lib o'tgan?
A) mil.avv.490-440-yillarda
B) mil.avv.490-449-yillarda
C) mil.avv.490-479-yillarda
D) mil.avv.490-459-yillarda
3. Yunonistonda qaysi davlat forslarga itoat qilmagan?
A) Afina va Sparta
B) Sparta
C) Afina
D) Fiva
4. Qachon Fors shohlari Kichik Osiyodagi Yunon shahar-davlatlarini bosib oladilar?
A) mil.avv.VI asrda
B) mil.avv.VII asrda
C) mil.avv.IV asrda
D) mil.avv.V asrda
5. Qachon fors harbiy floti Egey dengizini kesib o'tib, Attika sohiliga yetib kelishgan?
A) mil.avv.486-yil sentabr
B) mil.avv.480-yil sentabr
C) mil.avv.490-yil sentabr
D) mil.avv.470-yil sentabr
6. Yunonlar va forslar o'rtasida Marafon jangi qachon bo'lib o'tgan?
A) mil.avv.480-yil
B) mil.avv.409-yil
C) mil.avv.490-yil
D) mil.avv.479-yil
7. Marafon jangida Yunon qo'shinlariga kim rahbarlik qilgan?
A) Gannibal
B) Kserks
C) Miltiad
D) Leonid
8. Eron shohi Doro I vafot etgach forslarni Yunonistonga qaysi hukmdor boshlab kelgan edi?
A) Doro III
B) Kambiz
C) Kserks
D) Kir II
9. Yunon-fors urushlari davrida Gellespont bo'g'ozida kimning buyrug'i bilan bir kilometrdan uzun ko'prik qurilgan edi?
A) Miltiad
B) Leonid
C) Perikl
D) Kserks
10. Fermopil jangi qachon bo'lganligini aniqlang?
A) mil.avv.470-yil

Shuhratbek.uz

B) mil.avv.490-yil
C) mil.avv.479-yil
D) mil.avv.480-yil
11. Fermopil jangida Yunon qo'shinlariga kim boshchilik qilgan edi?
A) Leonid
B) Miltiad
C) Kserks
D) Perikl
12. «Uch yuz spartalik jasorati» voqeasi qaysi jangda bo'lganligini aniqlang?
A) Marafon jangi
B) Kann yonidagi jang
C) Fermopil jangi
D) Plateya jangi
13. Yunonlar va forslar o'rtasida Salamin bo'g'ozidagi jang qaysi yilda bo'lgan?
A) mil.avv.449-yil
B) mil.avv.479-yil
C) mil.avv.480-yil
D) mil.avv.470-yil
14. Yunonlar qo'shini qachon Plateya shahri yaqinida fors qo'shinlarini tor-mor qilishgan edi?
A) mil.avv.480-yil
B) mil.avv.449-yil
C) mil.avv.490-yil
D) mil.avv.479-yil
15. Yunon-fors urushlaridan keyin tuzilgan sharnomada fors shohi qanday shartlarni qabul qilgan edi?
A) yunonlarga qarshi harbiy harakatlar olib bormaslikni
B) yunon xudolari haykallarini qaytarishni
C) Old Oiyodagi barcha yunon polislarini mustaqilligini e'tirof qilgan va yunonlarga qarshi harbiy harakatlar olib bormaslikga rozi bo'lgan
D) Old Oiyodagi barcha yunon polislarini mustaqilligini e'tirof qilgan.

Shuhratbek.uz

## 28-Yunonistonning Makedoniya tomonidan bosib olinishi (12)

### Testlar

1. Makedoniya podshosi Filipp II ning 16 qatordan iborat piyoda qo'shinlari safi qanday atalgan?
A) kogorta
B) falanga
C) legion
D) senturiy
2. Yunoniston shaharlari aholisini birlashish va makedonlarga qarshi kurashishga da'vat qilgan notiq kim bo'lgan?
A) Diogen
B) Suqrot
C) Demosfen
D) Demokrit
3. Yunonistonda Filipp II qo'shinlariga qarshi Afina shaharlari ittifoqiga qaysi shahar aholisi qo'shilgan edi?
A) hamma javoblar to'g'ri
B) Mikena
C) Sirakuza
D) Fiva
4. Xeroniya shahridagi Beotiyada qachon yunonlar va makedonlar asosiy kuchlari to'qnashgan?
A) mil.avv.480-yil 2-avgust
B) mil.avv.337-yil 2-avgust
C) mil.avv.338-yil 2-avgust
D) mil.avv.490-yil 2-avgust
5. Mualliflar qaysi jang haqida «halok bo'lganlarning jasadlari bilan birga Yunonlarning ozodligi va erki ham dafn etilgan edi» deb yozgan edilar?
A) Marafon jangi
B) Xeroniya jangi
C) Fermopil jangi
D) Plateya jangi
6. Kim «Yunon ozodligi Xeroniya ostonasida halok bo'lganlar bilan birgalikda dafn qilindi» deb yozgan edilar?
A) Gerodot
B) Aristobul
C) Demosfen
D) Makedoniyalik Aleksandr
7. Makedoniya hukmdori Filipp II forslarga qarshi qaysi xalq bilan ittifoq tuzadi?
A) rimliklar bilan
B) yunonlar bilan
C) oriylar bilan
D) doriylar bilan
8. Korinf ittifoqi qachon vujudga kelgan?
A) mil.avv.335-yil
B) mil.avv.337-yil
C) mil.avv.338-yil
D) mil.avv.336-yil
9. Korinf ittifoqida Yunonistondagi qaysi davlat qatnashmagan edi?
A) Mikena
B) Sparta
C) Afina

Shuhratbek.uz

D) Fiva
10. Korinf ittifoqiga birlashgan davlatlar qanday shartga kelishgan edilar?
A) o’zaro urushlar olib bormaslikka
B) hamma javoblar to’g’ri
C) bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik
D) murosada tinch-totuv yashashga
11. Korinf ittifoqiga kirgan davlatlar o’rtasidagi barcha ixtiloflarni qaysi muassasa hal etishi lozim edi?
A) Afina dengiz ittifoqi
B) Xalq majlisi
C) Yunon shahar-davlatlari kengashi
D) Afina shahar-davlatlari kengashi
12. Makedoniya shohi Filipp II qachon xoinlar tomonidan o’ldirilgan?
A) mil.avv.337-yil
B) mil.avv.336-yil
C) mil.avv.334-yil
D) mil.avv.338-yil

Shuhratbek.uz

## 29-30-Qadimgi Yunoniston madaniyati (32)

### Testlar

1. Yunon maktablarida bolalar ikki yillik harbiy ta'limning birinchi yilida nimani o'rganishgan?
A) safda yurish, qurol taqib yurish, ochlik va sovuqqa chidamli bo'lishni
B) safda yurish; qurol taqib yurish.
C) otda salt yurish; mushtlashish.
D) ochlik va sovuqqa chidamli bo'lishni.
2. Yunon maktablarida o'g'il bolalar harbiy ta'limning ikkinchi yilida nima o'rganishgan?
A) Attikaning chegara qal'alarida harbiy xizmatni o'tagan va Pirey portida dengizchilik san'ati o'rganishgan
B) safda yurish; qurol taqib yurishni
C) Pirey portida dengizchilik san'ati o'rganishgan
D) Attikaning chegara qal'alarida harbiy xizmatni o'tagan.
3. Olimpiya o'yinlari qachon ilk bora o'tkazilgan?
A) mil.avv.767-yilda
B) mil.avv.776-yilda
C) milodiy 767-yilda
D) mil.avv.394-yilda
4. Yunonistonda Olimpiya o'yinlari qaysi xudo sharafiga bag'ishlab o'tkazilgan?
A) Gerakl
B) Uran
C) Zevs
D) Afina
5. Afsonalarga ko'ra Olimpiada o'yinlarining asoschisi kim bo'lganligini aniqlang.
A) Gerakl
B) Zevs
C) Perikl
D) Makedoniyalik Aleksandr
6. Yunonistonda Olimpia o'yinlarida kimlar ishtirok etishga haqli bo'lgan?
A) barcha sportchilar
B) asir olingan gladiyatorlar
C) jinoyat sodir etmagan ozod yunonlar
D) ota-onasi afinalik bo'lgan fuqarolar
7. Yunonistonda sportchilar Olimp tog'ida o'z haykalini o'rnatish uchun nima qilishi kerak bo'lgan?
A) to'la haq-huquqlarga ega bo'lishi kerak
B) armiyada xizmat qilgan bo'lishi kerak
C) musobaqalarda 3 karra g'alaba qozongan sportchi bo'lishi kerak
D) jinoyat sodir etmasligi kerak bo'lgan
8. Yunonistonda alohida yugurish bo'yicha musobaqalar kimlar uchun o'tkazilar edi?
A) barcha sportchilar uchun
B) ayollar uchun
C) o'smirlar uchun
D) erkaklar uchun
9. Qachondan boshlab Olimpia o'yinlari o'tkazilmasdan qolgan?
A) 1896-yildan
B) mil.avv.776-yildan
C) 776-yildan
D) 394-yildan
10. Zamonaviy Olimpia o'yinlari qachon qayta tiklangan edi?

Shuhratbek.uz

A) 1896-yil
B) 394-yil
C) 1869-yil
D) 776-yil
11. Yunonlar qachon Kichik Osiyoda joylashgan Troyaga yurish qilishgan?
A) mil.avv.1500-yil
B) mil.avv.1100-yil
C) mil.avv.1450-yil
D) mil.avv.1200-yil
12. Sparta podshosining rafiqasi Sohibjamol Yelenani kim Troyaga o'g'irlab ketgan edi?
A) Troya podshosining o'g'li Leonid
B) Troya podshosining o'g'li Paris
C) Troya podshosining o'g'li Odissey
D) Troya podshosining o'g'li Axilles
13. Yunonlar Troyani necha yil natijasiz qamal qilganlar?
A) 7 yil
B) 8 yil
C) 10 yil
D) 9 yil
14. Troya urushining oxirgi o'ninchi yili haqida hikoya qiluvchi dostonni aniqlang.
A) «Iliada» dostoni
B) «Sinuxet haqida hikoya»
C) «Troya»
D) «Argonavtlar» dostoni
15. Kimning maslahati bilan yunonlar Troya urushida «Troya oti»ni yordamida g'alaba qozongan edilar?
A) Odissey
B) Paris
C) Gomer
D) Axilles
16. «Iliada» dostonining bosh qahramoni kim bo'lganligini aniqlang.
A) Perikl
B) Paris
C) Axilles
D) Odissey
17. «Iliada» va «Odissey» poemalarining muallifini aniqlang.
A) Sofokl
B) Gerodot
C) Gomer
D) Aristofan
18. Yunonistonda qaysi yozuvchi so'qir bo'lib yurtma-yurt kezib cholg'u asbobi jo'rligida o'z she'rlarini kuylab yurardi?
A) Gomer
B) Suqrot
C) Demosfen
D) Demokrit
19. Qaysi olim XIX asrning oxirida Gomer hikoyalarini tadqiq qilib Troya joylashgan yerni aniqlagan?
A) G.Shlimann
B) A.Okladnikov
C) F.Shamapolyon
D) K.Rixtgofen

Shuhratbek.uz

20. Troya xarobalarini Genrix Shlimann qachon va qayerdan topgan edi?
A) 1870-yil Turkiyada Hisorlik tepaligidan
B) 1877-yil Turkiya Anqara shaxridan
C) 1877-yil Amudaryoning chap qirg'og'idagi Qunduz shaxridan
D) 1870-yil Misrda Rozett shaxridan
21. Yunonistonda teatr qachon dunyoga vujudga kelgan edi?
A) bundan ikki yarim ming yil muqaddam
B) bundan uch yarim ming yil muqaddam
C) bundan ikki ming yil muqaddam
D) bundan uch ming yil muqadda
22. «Teatr» so'zi yunonchadan tarjima qilinganda qanday ma'noni bildiradi?
A) «kattalar uchun maktab»
B) «tomoshalar uchun joy»
C) «katta sahna»
D) «echkilar qo'shig'i»
23. Yunoniston teatrlarida qatnashuvchi kishilar halok bo'lishi bilan tugaydigan pyesalar nima deb atalgan?
A) trilogiya
B) tragediya
C) drama
D) komediya
24. «Shoh Edip», «Antigona» singari mashhur tragediyalarni muallifini aniqlang.
A) Gomer
B) Sofokl
C) Gerodot
D) Aristofan
25. Qadimgi Yunonistonda kim komediyalar ustasi bo'lgan?
A) Demokrit
B) Gomer
C) Sofokl
D) Aristofan
26. Aristofan yozmagan asarlarni aniqlang.
A) «Arilar»
B) «Qushlar»
C) «Antigona»
D) «Baqalar»
27. Qadimgi Yunonistonda qachondan boshlab ibodatxonalar va boshqa jamoat binolari toshdan qurilib boshlangan?
A) mil.avv.VII asrda
B) mil.avv.VI asrda
C) mil.avv.I asrda
D) mil.avv.V asrda
28. Tarixchilar qaysi davlat haqida «tirik odamlarga qaraganda jonsiz haykallar ko'proq» deb yozishgan edilar?
A) Rim
B) Misr
C) Sparta
D) Afina
29. Afinada qaysi haykaltarosh Parfenon barpo etilishi va Akropol qayta qurilishiga boshchilik qilgan?
A) Fidiy
B) Miron

Shuhratbek.uz

C) Dedal
D) Poliklet
30. Yer yuzidagi yetti mo’jizaning biri hisoblangan Olimpiyalik Zevs haykalini qaysi haykaltarosh yasagan edi?
A) Dedal
B) Poliklet
C) Fidiy
D) Miron
31. Qaysi haykaltarosh Minos degan podsho uchun mashhur Labirint saroyini barpo etgan edi?
A) Miron
B) Fidiy
C) Dedal
D) Poliklet
32. Afinadagi qaysi bino yorug’lik tushishiga qarab o’z rangini oltin rangidan havorang yoki kulranggacha o’zgartirib, tuslanib turgan?
A) Panteon ibodatxonasi
B) Kolizey amfiteatri
C) Labirint saroyi
D) Parfenon ibodatxonasi

Shuhratbek.uz

## 31-32-Olimlar va mutafakkirlar (20)

### Testlar

1. Qaysi Yunon faylasufi Yer yuzidagi hamma narsa olovdan kelib chiqqan degan fikr tarafdori bo'lgan?
A) Diogen
B) Geraklit
C) Demosfen
D) Demokrit
2. «Bir daryoga ikki marta tushish mumkin emas», «Hamma narsa oqadi, hamma narsa o'zgaruvchandir» degan mashhur hikmatlar kimga tegishli bo'lgan?
A) Demokrit
B) Suqrot
C) Geraklit
D) Demosfen
3. «Bizni qurshab turgan hamma narsa ko'zga ko'rinmaydigan mayda-mayda zarralar – atomlardan tashkil topgan» degan fikr muallifi qaysi faylasuf bo'lgan?
A) Diogen
B) Demokrit
C) Geraklit
D) Demosfen
4. Qaysi faylasuf «Insonda hech qanday ehtiyojlar bo'lmasligi shart» degan fikrni o'z ta'limotiga asos qilib olgan edi?
A) Demosfen
B) Geraklit
C) Demokrit
D) Diogen
5. Qaysi Yunon faylasufi hayotdagi barcha qulayliklardan voz kechib bir bochkada kun kechirgan?
A) Aristotel
B) Arximed
C) Diogen
D) Suqrot
6. «Yunon-fors urushlari to'g'risidagi tarix» asarining muallifi kimligini aniqlang?
A) Aflotun
B) Gerodot
C) Suqrot
D) Platon
7. Qaysi olimga tirikligidayoq «tarixning otasi» degan unvon berilgan edi?
A) Gerodot
B) Platon
C) Arastu
D) Sokrat
8. Qaysi olim to'plangan bilimlarni alohida tarmoqlarga ajratgan va ularni mustaqil fanlar sifatida ta'riflab bergan?
A) Suqrot
B) Platon
C) Aristotel
D) Forobiy
9. Qaysi Yunon olimini Sharqda «Arastu» deya aytish odatga aylangan edi?
A) Aristotel
B) Forobiy

Shuhratbek.uz

C) Gerodot
D) Suqrot
10. Qaysi olim ko'zgular tizimidan foydalanib yorug'likni bitta yo'nalishga jamlagan va rimliklarning kemalarini yondirib yuborgan edi?
A) Arximed
B) Platon
C) Diogen
D) Aristotel
11. Qaysi olim richag qonunini ishlab chiqqan va «Menga tayanch nuqtasini topib bering, Yerni o'z o'qidan chiqarib yuboraman» degan iborani aytgan edi?
A) Arximed
B) Demokrit
C) Geraklit
D) Gerodot
12. Yunon olimi Arximedning jonajon shahri qaysi bo'lganligini aniqlang?
A) Sirakuza
B) Fiva
C) Mikena
D) Afina
13. Qaysi faylasuf o'zining dono hikmatlari tufayli shaharning eng aqlli kishisi deb e'lon qilingan edi?
A) Diogen
B) Demokrit
C) Suqrot
D) Arximed
14. «Mening donishmandligim hech nimani bilmasligimni bilishimda» degan hikmat qaysi faylasufning so'zlari bo'lgan?
A) Demokrit
B) Arastu
C) Suqrot
D) Platon
15. Suqrotning g'oyalari qaysi faylasufning muloqotlari orqali yetib kelgan?
A) Demokrit
B) Arastu
C) Platon
D) Diogen
16. Atlantida degan hayoliy (ideal) davlat to'g'risida ta'limot yaratgan yunon faylasufi kim bo'lgan?
A) Arastu
B) Suqrot
C) Demokrit
D) Platon
17. «Xudo bizning o'zimizdadir» degan hikmat qaysi faylasufga tegishli bo'lgan?
A) Suqrot
B) Arastu
C) Demokrit
D) Aflotun
18. Suqrotning «O'z-o'zingni anglagin va bilgin» degan hikmati qaysi ibodatxonada yozilgan edi?
A) Afina ibodatxonasi
B) Parfenon ibodatxonasi
C) Delfiya ibodatxonasi
D) Panteon ibodatxonasi

Shuhratbek.uz

19. Qaysi faylasuf dunyoda Ezgulik qonunlari mavjudligini, faqat ularni bilish va ularga rioya qilgan holda yashash kerakligini isbotlagan edi?
A) Arximed
B) Arastu
C) Suqrot
D) Aflotun
20. Qaysi faylasuf Afinadagi ba’zi tartibotlarni qo’rqmasdan tanqid qilgani sababli o’limga maxkum etilgan edi?
A) Arastu
B) Aflotun
C) Suqrot
D) Platon

Shuhratbek.uz

## 33-34-Qadimgi Yunoniston afsonalari (30)

### Testlar

1. Qadimgi Yunon afsonalariga ko’ra titanlar qanday mavjudotlar bo’lgan?
A) xudolardan tug’ilgan qudratli pahlavonlar
B) yarim otlar, yarim odamlar bo’lgan mavjudotlar
C) peshanasida bita ko’zi bo’lgan mavjudotlar
D) yarim qush, yarim ayollar bo’lgan mavjudotlar
2. Qadimgi Yunon afsonalarida yarim qush, yarim ayollar bo’lgan mavjudotlar qanday atalgan?
A) siklop
B) kentavr
C) titan
D) sirena
3. Qadimgi Yunon afsonalariga ko’ra kentavrlar qanday mavjudotlar bo’lganini aniqlang?
A) xudolardan tug’ilgan qudratli pahlavonlar
B) peshanasida bita ko’zi bo’lgan mavjudotlar
C) yarim qush, yarim ayollar bo’lgan mavjudotlar
D) yarim otlar, yarim odamlar bo’lgan mavjudotlar
4. Qadimgi Yunon afsonalarida ko’ra peshanasida bitta ko’zi bo’lgan afsonaviy mavjudotlar qanday atalgan?
A) kentavr
B) siklop
C) titan
D) sirena
5. Yunon tilidagi «mif» so’zi qanday ma’noni bildiradi?
A) doston
B) afsona
C) rivoyat
D) qo’shiq
6. Qadimgi yunon afsonalariga ko’ra dengizlarning hukmdori qaysi titan bo’lgan?
A) Okean degan titan
B) Atlas degan titan
C) Poseydon degan titan
D) Gerakl degan titan
7. Qadimgi Yunon afsonalariga ko’ra ulkan osmon gumbazi qaysi titanning yelkalariga suyanib turgan?
A) Gerakl degan titan
B) Atlas degan titan
C) Okean degan titan
D) Geya degan titan
8. Yunon rivoyatlarining qaysi qahramoni o’n ikki jasorati tufayli Olimp tog’ida xudolar saltanatida faxrli o’ringa ega bo’lgan?
A) Gerakl
B) Paris
C) Merkuriy
D) Zevs
9. Qadimgi yunonlar diniga ko’ra qaysi xudolar Olamga hukmronlik qilar edi?
A) Uran, Atlas, Okean
B) Zevs, Poseydon, Aid
C) Uran, Okena, Zevs
D) Gera, Uran, Okean

Shuhratbek.uz

10. Qadimgi Yunonlar dinida tuban xudolar qanday atalganini aniqlang?
A) sikloplar
B) satirlar va nimfalar
C) satirlar
D) nimfalar
11. Qadimgi yunonlarda Zevs qanday xudo bo'lganini aniqlang?
A) quyosh xudosi
B) urush va donishmandlik xudosi
C) oliy xudo, qolgan barcha xudolarning rahnamosi
D) dengiz xudosi
12. Qadimgi yunonlarda Poseydon qanday xudo bo'lgan?
A) quyosh xudosi, Zevsning ukasi
B) oliy hudo, barcha xudolarning raxnomasi
C) dengiz xudosi, Zevsning inisi
D) urush va donishmandlik xudosi, Zevsning qizi
13. Qadimgi yunonlar dinida Zevsning qizi, jangari ayol, donishmandlik ilohasi bo'lgan iloha qaysi bo'lgan?
A) Demetra
B) Nika
C) Afina
D) Diana
14. Qadimgi yunonlar dinida Apollon qanday xudo bo'lganini aniqlang?
A) yorug'lik xudosi
B) hamma javoblar to'g'ri
C) musiqa va she'riyat xudosi
D) Zevsning o'g'li
15. Qadimgi yunonlar dinida quyosh xudosi qanday atalgan?
A) Germes
B) Apollon
C) Demetra
D) Gelios
16. Qadimgi yunonlar dinida Demetra qanday iloha hisoblangan?
A) dengiz ilohasi
B) urush va donishmandlik ilohasi
C) adliya ilohasi
D) dexqonchilik va hosildorlik ilohasi
17. Qadimgi yunonlar dinida Yer ilohasi qanday nomlangan?
A) Afina
B) Geya
C) Diana
D) Demetra
18. Qadimgi yunonlar dinida Femida qanday iloha bo'lgan?
A) suv ilohasi
B) she'riyat va muxabbat ilohasi
C) yer ilohasi
D) adliya ilohasi
19. Qadimgi yunonlar dinida temirchilar va hunarmandlar xudosi qanday nomlangan?
A) Gerakl
B) Gefest
C) Geya
D) Germes
20. Qadimgi yunonlar dinida Afrotida qanday iloha bo'lgan?

Shuhratbek.uz

A) urush xudosi
B) muhabbat va go'zallik ilohasi
C) musiqa va she'riyat xudosi
D) temirchilar va hunarmandlar xudosi
21. Qadimgi yunonlar dinidagi urush xudosini aniqlang?
A) Mars
B) Ares
C) Zevs
D) Afina
22. Qadimgi yunonlar dinida Dionis qanday xudo hisoblangan?
A) sharob xudosi
B) temirchilar xudosi
C) savdo-sotiq xudosi
D) g'alab xudosi
23. Qadimgi yunonlar dinida savdo xudosi qanday atalgan?
A) Dionis
B) Merkuriy
C) Germes
D) Xronos
24. Qadimgi yunonlar dinida Nika qanday iloha bo'lgan?
A) g'alaba ilohasi
B) sevgi xudosi
C) zamon xudosi
D) sharob xudosi
25. Qadimgi yunonlar dinida Zamon xudosi qanday atalganligini aniqlang?
A) Xronos
B) Eos
C) Eros
D) Aid
26. Qadimgi yunonlar dinida Artemida qanday xudo hisoblangan?
A) o'rmonlar va ovchilik xudosi
B) sevgi va muhabbat xudosi
C) marhumlar saltanati xudosi
D) uyqu xudosi
27. Qadimgi yunonlar dinidagi sevgi xudosini aniqlang?
A) Eos
B) Gelios
C) Artemida
D) Eros
28. Qadimgi yunonlar dinida Gipnos qanday xudo bo'lgan?
A) uyqu xudosi
B) sevgi xudosi
C) o'rmonlar va ovchilik xudosi
D) marhumlar saltanati xudosi
29. Qadimgi yunonlar dinida marhumlar saltanatining xudosi qanday nomlangan?
A) Osiris B) Aid
C) Gefest
D) Gipnos
30. Qadimgi yunonlarning e'tiqodicha xudolar qayerda yashaydilar deb bilganlar?
A) hamma javoblar to'g'ri B) Makedoniya va Fessaliya chegarasida
C) Yunonistonning Elida viloyatida
D) Olimp tog'ida

Shuhratbek.uz

## 35-36-O’rta Osiyoga Ahamoniylarning bosqinchilik yurishlari (30)

### Testlar

1. Fors shohi Kir II mil.avv.545 va 540-yillarda qaysi hududlarni bosib olgan edi?
A) Parfiya, Baqtriya, Marg’iyonani
B) Parfiya, Baqtriyani
C) Parfiya, Marg’iyonani
D) Baqtriya, So’g’diyonani
2. Fors shohi Kir II qachon ulkan lashkar bilan massagetlar ustiga yurish boshlagan?
A) mil.avv.530-yil
B) mil.avv.522-yil
C) mil.avv.545-yil
D) mil.avv.540-yil
3. Fors shohi Kir II ning massagetlar yurtiga bostirib borishi haqida qaysi tarixchi yozib qoldirgan?
A) Platon
B) Poliyen
C) Gerodot
D) Gomer
4. Kir II massagetlar ustiga yurish qilganda massagetlar hukmdori kim bo’lgan?
A) Tug’shoda
B) To’maris
C) Frada
D) Sparangiz
5. Fors podshosi Kir II qaysi jangda halok bo’lganligini aniqlang.
A) massagetlar bilan bo’lgan jangda
B) skiflar bilan bo’lgan jangda
C) midiyaliklar bilan bo’lgan jangda
D) saklar bilan bo’lgan jangda
6. Fors shohi Doro I hukmronligining birinchi yilida qayerda yirik xalq qo’zg’oloni ko’tarilgan edi?
A) So’g’diyona
B) Baqtriya
C) Xorazm
D) Marg’iyona
7. Marg’iyonada forslarga qarshi ko’tarilgan xalq qo’zg’oloniga kim rahbarlik qilgan edi?
A) Skunxa
B) Shiroq
C) To’maris
D) Frada
8. Fors podshosi Doro I qo’shini va Frada boshchiligidagi qo’zg’olonchilar o’rtasida hal qiluvchi jang qachon bo’lganligini aniqlang.
A) mil.avv.522-yil
B) mil.avv.521-yil
C) mil.avv.519-yil
D) mil.avv.530-yil
9. Mil.avv.521-yilda bo’lib o’tgan voqeani aniqlang.
A) Doro I saklar sardori SHiroqni qatl qildirdi.
B) Forslarga qarshi qo’zg’olon ko’targan Frada qatl qilindi
C) Doro I ning massagetlar ustiga yurishi boshlandi
D) Doro I saklar ustiga yurish boshladi
10. Fors podshosi Doro I qachon saklar ustiga yurish qilgan edi?

Shuhratbek.uz

A) mil.avv.520-yil
B) mil.avv.522-yil
C) mil.avv.519-yil
D) mil.avv.521-yil
11. Fors podshosi Doro I ning saklar ustiga yurishi haqida qaysi tarixchi yozib qoldirgan edi?
A) Gerodot
B) Poliyen
C) Sim Szyan
D) Platon
12. Saklar yurtiga Doro I yurish qilganda ularning sardori Skunxa bo'lganligi haqida qayerda ma'lumot keltirilgan?
A) Poliyen asarida
B) «Behistun» bitiklarida
C) Gerodotning asarida
D) «Avesto» kitobida
13. Tarixchi Poliyen qaysi asrda yashaganligini aniqlang.
A) mil.avv.II asrda
B) mil.avv.V asrda
C) mil.avv.VI asrda
D) mil.avv.IV asrda
14. Fors podshosi Doro I ning qaysi xalq ustiga qilgan yurishi muvaffaqiyatsiz tugagan?
A) massagetlar ustiga
B) so'g'diylar ustiga
C) marg'iyonaliklar ustiga
D) saklar ustiga
15. Fors podshosi Doro I ning saklar ustiga yurish qilgan qo'shinini Shiroq ismli cho'pon mag'lub qilgani haqidagi ma'lumot bizgacha qanday yetib kelgan?
A) «Behistun» bitiklari orqali
B) Gerodotning rivoyati orqali
C) Poliyenning rivoyati orqali
D) «Avesto» asari orqali
16. Ahamoniylar davlatni alohida viloyatlarga bo'lib tashlagan edilar.Bu viloyatlar qanday atalgan?
A) kent
B) sagaris
C) polis
D) satraplik
17. Qaysi forscha so'z «xshatra» - «viloyat» so'zidan kelib chiqqan?
A) aqinak
B) strateg
C) sagaris
D) satraplik
18. Ahamoniylar davrida cheklanmagan hokimiyat berilgan viloyat hokimi qanday atalgan?
A) konsul
B) prokonsul
C) satrap
D) strateg
19. O'rta Osiyoning forslar bosib olgan viloyatlari nechta satraplikka bo'lingan?
A) to'rt satraplikka
B) uch satraplikka
C) besh satraplikka
D) ikki satraplikka
20. Fors podshosi Kserks qaysi yillarda hukmronlik qilganligini aniqlang.

Shuhratbek.uz

A) mil.avv.530-522-yillar
B) mil.avv.522-486-yillar
C) mil.av 465-423-yillar
D) mil.avv.486-465-yillar
21. Ahamoniylardan kimning hukmronligi davrida O'rta Osiyo xalqlari siyosiy hayotda va yunon-fors urushlarida qatnashgan edilar?
A) Doro I va Kserks davrida
B) Kambiz davrida
C) Kir II davrida
D) Doro I davrida
22. Marafon jangida fors qo'shinlari markazida O'rta Osiyoning qaysi xalqi muvaffaqiyatli janglar olib borgan?
A) massagetlar
B) xorazmliklar
C) saklar
D) baqtriyaliklar
23. Qaysi tarixchi Kserks boshchiligida yunonlar ustiga yurish qilgan O'rta Osiyolik jangchilar qurol-yarog'larini mufassal tasvirlagan?
A) Gerodot
B) Poliyen
C) Sim Szyang
D) Arrian
24. Yunon-fors urushida baqtriyaliklar jangda qanday qurollar bilan qatnashganlar?
A) xanjar va oyboltalar bilan
B) xanjar va nayzalar bilan
C) kamon va oyboltalar bilan
D) kamon va nayzalar bilan
25. Yunon-fors urushlarida qaysi O'rta Osiyo xalqi xanjar va oyboltalar bilan qatnashgan?
A) massagetlar
B) baqtriyaliklar
C) saklar
D) xorazmliklar
26. Qaysi muallif Salamin yonidagi dengiz jangida halok bo'lgan baqtriyaliklar haqida yozib qoldirgan?
A) Sofokl
B) Esxil
C) Gerodot
D) Poliyen
27. Saklar, xorazmiylar va massagetlar qachon Ahamoniylar davlati tarkibidan mustaqil bo'lganlar?
A) mil.avv.V asrda
B) mil.avv.VI asrda
C) mil.avv.III asrda
D) mil.avv.IV asrda
28. Mil.avv.VI-IV asrlarda Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vodiylarida hunarmandchilik markazlari bo'lgan shaharlarni aniqlang.
A) hamma javoblar to'g'ri
B) Uzunqir, Ko'zaliqir
C) Afrosiyob
D) Qiziltepa, Yerqo'rg'on
29. O'rta Osiyo hududida qachon dastlabki tanga pullar tarqalgan?
A) mil.avv.III asrda
B) mil.avv.VI asrda

Shuhratbek.uz

C) mil.avv.III-II asrlarda
D) mil.avv.V-IV asrlarda
30. Britaniya muzeyida saqlanayotgan Amudaryo xazinasi qachon topilganligini aniqlang.
A) 1877-yil
B) 1807-yil
C) 1870-yil
D) 1822-yil

Shuhratbek.uz

## 37-38-O'rta Osiyo aholisining yunonmakedon istilochilariga qarshi kurashi (26)

### Testlar

1. Aleksandr qachon Makedoniya podshosi bo'lgan edi?
A) mil.avv.337-yil
B) mil.avv.335-yil
C) mil.avv.334-yil
D) mil.avv.336-yil
2. Makedoniyalik Aleksandr Sharqqa 11 yil davom etgan yurishida qaysi hududlarni bosib olgan edi? 1.Kichik Osiyo 2.Falastin 3.Iroq 4.Suriya 5.Misr 6.Kavkazorti 7.Hindiston 8.Eron
A) 1,2,3,4,5,6,7,8
B) 2,3,4,5,7
C) 1,4,5,7,8
D) 1,3,5,7,8
3. Makedoniyalik Aleksandrning yurishlarida qatnashgan tarixchini aniqlang?
A) Aristotel
B) Arrian
C) Aristobul
D) Gerodot
4. Mil.avv.VII-IV asrlarda O'rta Osiyo xalqlari orasida xanjar qanday atalgan?
A) «ostrakon»
B) «sagaris»
C) «ossuariy»
D) «aqinak»
5. Mil.avv.VII-IV asrlarda O'rta Osiyo xalqlari orasida mavjud «sagaris» qanday qurol bo'lgan ?
A) jangovar oybolta
B) xanjar
C) nayza
D) bargistuvon
6. Makedoniyalik Aleksandr qachon Fors shohi Doro III qo'shinlarini mag'lub qilgan edi?
A) mil.avv.329-yil
B) mil.avv.323-yil
C) mil.avv.327-yil
D) mil.avv.330-yil
7. Makedoniyalik Aleksandr nima maqsadda Amudaryoning narigi tomonida yashovchi elatlarni bo'ysundirmoqchi bo'lgan edi?
A) Eronga yurish qilishdan oldin qo'shinini orqasini xavfsizlantirish uchun
B) Hindistonga yurish qilishdan oldin qo'shinini orqasini xavfsizlantirish uchun
C) Xorazmga yurish qilishdan oldin qo'shinini orqasini xavfsizlantirish uchun
D) Qora dengiz bo'yiga yurish qilishdan oldin qo'shinini orqasini xavfsizlantirish uchun
8. Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga yurishida birinchi yo'lida uchragan shahar qaysi bo'lganligini aniqlang?
A) Nautaka
B) Kiropolis
C) Marv
D) Baqtra
9. Makedoniyalik Aleksandr bosqini davrida Baqtriya satrapi kim bo'lgan?
A) Bess
B) Dadarshish
C) Xoriyen

Shuhratbek.uz

D) Ariamen
10. Makedoniyalik Aleksandrga kim Amudaryodan ikki podsho Kir II va Doro I kechib o'tgani, ikkalasi ham mag'lubiyatga uchragani haqida xabar bergan edi?
A) Aristobul
B) Oksiart
C) Aristotel
D) Bess
11. Nautaka deb nomlangan hududni geografik o'rnini aniqlang?
A) Sirdaryo qirg'oqlaridagi hudud
B) Qashqadaryo vohasining sharqiy qismi
C) Farg'ona sohasining sharqiy qismi
D) Surxondaryo vohasining sharqiy qismi
12. Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari qachon Maroqandani bosib olgan edilar?
A) mil.avv.329-yil
B) mil.avv.330-yil
C) mil.avv.327-yil
D) mil.avv.328-yil
13. Makedoniyalik Aleksandr Maroqandani egallagach qayerni bosib olish uchun yurish qilgan?
A) A va B javoblar to'g'ri
B) Kurushkat shahrini bosib olish uchun
C) Sirdaryo qirg'oqlarini bosib olish uchun
D) Nautakani bosib olish uchun
14. Sirdaryo qirg'oqlarida joylashgan Kurushkat shahriga kim asos solganligini aniqlang?
A) Kserks
B) Makedoniyalik Aleksandr
C) Kir II
D) Kambiz
15. Makedoniyalik Aleksandrga qarshi so'g'diylar, baqtriyaliklar sak va massagetlarning qo'zg'oloniga kim rahbarlik qilgan edi?
A) Bess
B) Oksiart
C) Sparangiz
D) Spitamen
16. Makedoniyalik Aleksandr yurishi davrida qaysi daryoning nomi «Politimet» deb nomlangan edi?
A) Hind daryosini
B) Sirdaryoni
C) Amudaryoni
D) Zarafshon daryosini
17. Makedoniyalik Aleksandr qo'shinining bir qismini unga qarshi qo'zg'olon ko'targan Spitamen qayerda qirib tashlagan edi?
A) Zarafshon daryosi bo'yida
B) Sirdaryo bo'yida
C) Kurushkat shahrida
D) Amudaryo bo'yida
18. Makedoniyalik Aleksandr saklar va massagetlarga qarshi kurash uchun qurdirgan tayanch qal'asini aniqlang?
A) Orianar Iskandariya
B) Marg'iyona Aleksandriyasi
C) Araxosiya Aleksandriya
D) Aleksandriya Esxata
19. Makedoniyalik Aleksandr qurdirgan Aleksandriya Esxata qal'asi qayerda bo'lganligini

Shuhratbek.uz

aniqlang?
A) Qashqadaryo vohasining sharqida
B) Farg’ona yaqinida
C) Toshkent yaqinida
D) Xo’jand yaqinida
20. Makedoniyalik Aleksandr qayerda tinch aholining 120 ming nafarini qirib tashlagan edi?
A) Hind vodiysida
B) Marg’iyonada
C) Baqtriyada
D) So’g’diyonada
21. Makedoniyalik Aleksandr bilan Spitamen o’rtasidagi hal qiluvchi jang qachon bo’lib o’tgan edi?
A) mil.avv.328-yil
B) mil.avv.330-yil
C) mil.avv.327-yil
D) mil.avv.329-yil
22. Makedoniyalik Aleksandr qo’lga kiritgan Xoriyen va Oksiartning tog’ qal’alari qayerda bo’lgan edi?
A) Qashqadaryo vohasining sharqida
B) Pomir tog’larida
C) Sirdaryo bo’ylarida
D) Hisor tog’larida
23. Makedoniyalik Aleksandr uylangan Ravshanak qaysi qabiladan bo’lganligini aniqlang?
A) sak qabilasidan
B) fors qabilasidan
C) so’g’d qabilasidan
D) massaget qabilasidan
24. Makedoniyalik Aleksandr O’rta Osiyo yerlarini bosib olish uchun 3 yil urinib qayerlarni bo’ysundirgan edi?
A) Bekobod va Xo’janddan iborat Sirdaryo bo’ylarini
B) So’g’diyona
C) hamma javoblar to’g’ri
D) Marg’iyona, Baqtriya
25. Makedoniyalik Aleksandr bosqini natijasida O’rta Osiyoda qaysi hududlar mustaqilligacha qolgan edi? 1.Xorazm 2.Baqtriya 3.Marg’iyona 4.So’g’diyona 5.Farg’ona 6.Toshkent vohasi 7.Sirdaryo bo’ylari
A) 5,6,7
B) 1,2,3,
C) 1,5,6
D) 1,4,5,
26. Qachondan boshlab Makedoniy askarlarining saflari Baqtriya va So’g’dinyona yoshlari hisobiga to’ldirilib boshlangan edi?
A) mil.avv.327-yildan
B) mil.avv.326-yildan
C) mil.avv.324-yildan
D) mil.avv.325-yildan

Shuhratbek.uz

## 39-40-Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi (22)

### Testlar

1. Tarixda Salavka ismli shaxs tuzgan davlat tarkibiga qaysi hududlar kirganligini aniqlang? 1.Mesopotamiya 2.Hindiston 3.Eron 4.Parfiya 5.Baqtriya 6.So'g'diyona 7.Marg'iyona 8.Kichik Osiyo
A) 1,3,4,5,7,8
B) 1,2,3,4,5,6
C) 1,5,6,7
D) 1,3,4,5,6,7
2. Salavka davlati tarkibiga kirgan O'rta Osiyoda davlat mudofaasi va qo'shinlarni tashkil etish bilan kim shug'ullanar edi?
A) davlat hukmdori
B) konsul
C) strateg
D) satrap
3. Salavka davlatida kimlar strateg bo'lib tayinlanar edilar?
A) hukmdorning qarindoshlari
B) sobiq lashkarboshilar
C) mahalliy davlat hukmdorlari
D) hukmdori saroyi ayonlari
4. Salavka qachon Sharqiy viloyatlarga o'g'li Antioxni noib etib tayinlagan?
A) mil.avv.312-yil
B) mil.avv.280-yil
C) mil.avv.313-yil
D) mil.avv.293-yil
5. Makedoniyalik Aleksandrning lashkarboshisi Salavka qachon vafot etgan?
A) mil.avv.293-yil
B) mil.avv.290-yil
C) mil.avv.260-yil
D) mil.avv.280-yil
6. Sharqda qachon yunon madaniyati tarqala boshlagan edi?
A) mil.avv.I asrda
B) mil.avv.III-II asrlarda
C) mil.avv.II-I asrlarda
D) mil.avv.IV-III asrlarda
7. Sharqda yunon madaniyatining mahalliy madaniyat bilan umumlashib yangi madaniyatning vujudga kelishi qanday nomlangan?
A) patritsiylashtirish
B) ellinlashtirish
C) plebeylashtirish
D) aristokratlashtirish
8. Baqtriya davlati qachon Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqqan edi?
A) mil.avv.V asrda
B) mil.avv.III asrda
C) mil.avv.IV asrda
D) mil.avv.II asrda
9. Kim mingta Baqtriya shahrining birinchi podshosi bo'lganligini aniqlang?
A) Diodot
B) Mitridat
C) Yevtidem

Shuhratbek.uz

D) Demetriy
10. Parfiya qachon Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqadi?
A) mil.avv.312-yil
B) mil.avv.280-yil
C) mil.avv.250-yil
D) mil.avv.293-yil
11. Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga qaysi hududlar kirgan?
A) Baqtriya
B) Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona
C) So'g'diyona, Marg'iyona
D) Mesopotamiya, Eron, Marg'iyona, So'g'diyona
12. Yunon-Baqtriya hukmdori Demetriyning hukmronlik yillarini aniqlang?
A) mil.avv.312-280-yillar
B) mil.avv.250-238-yillar
C) mil.avv.199-167-yillar
D) mil.avv.212-199-yillar
13. Yunon-Baqtriya davlatida Diodotdan keyin hukmronlik qilgan shaxsni aniqlang?
A) Demetriy
B) Antiox
C) Dadarshish
D) Yevtidem
14. Makedoniyalik Aleksandr vafot etgan vaqtni aniqlang?
A) mil.avv.322-yil 13 iyun
B) mil.avv.324-yil 13-iyun
C) mil.avv.323-yil 13-iyun
D) mil.avv.325-yil 13-iyun
15. Makedoniyalik Aleksandr yaratgan davlat uning vafotidan so'ng qaysi qismlarga bo'linib ketgan edi?
A) uch qismga: Makedoniya, Misr, Suriya
B) ikki qismga: Makedoniya va Yunoniston
C) uch qismga: Misr, Suriya, Bobil
D) ikki qismga: Misr va Suriya
16. Mil.avv.312-yilda Bobil davlati hukmdori kim bo'lganligini aniqlang?
A) Antiox
B) Aleksandr Makedonskiy
C) Salavka
D) Diodot
17. Yunon-Baqtriya tarkibiga Hindistonni bir qismi qaysi hukmdor davrida qo'shib olingan edi?
A) Mitridat
B) Yevtidem
C) Demetriy
D) Diodot
18. Parfiyaning qaysi hukmdori Yunon-Baqtriya davlatiga harbiy tazyiqni kuchaytirgan edi?
A) Antiox
B) Geleokl
C) Mitridat
D) Evkardit
19. Mil.avv.140-130-yillarda Yunon-Baqtriya davlatini qaysi qabilalar bosib olgan?
A) oriy qabilalari
B) noma'lum qabilalar
C) yueban qabilalari
D) yuechji qabilalari

Shuhratbek.uz

20. Yunon-Baqtriya davlati necha yil hukmronlik qilgan edi?
A) 110 yil
B) 120 yil
C) 140 yil
D) 130 yil
21. Yunon-Baqtriya tangalarida qanday tasvir zarb qilingan edi?
A) suvoriy tasviri
B) malika tasviri
C) strateg tasviri
D) hukmdor tasviri
22. Yunon-Baqtriya davlatidan Buyuk Ipak yo'lining qaysi tarmog'i o'tgan edi?
A) g'arbiy tarmog'i
B) shimoliy tarmog'i
C) janubiy tarmog'i
D) sharqiy tarmog'i

Shuhratbek.uz

## 41-Qadimgi Xorazm_Qang va Dovon davlati (38)

### Testlar

1. Xorazm qachon Axamoniylardan mustaqil davlat bo'lib ajralib chiqqan?
A) mil.avv.III asrda
B) mil.avv.II asrda
C) mil.avv.IV asrda
D) mil.avv.V asrda
2. Xorazmda shaharsozlik qachondan boshlangan edi?
A) mil.avv.VII asrdan
B) mil.avv.IV asrdan
C) mil.avv.VI asrdan
D) mil.avv.V asrdan
3. Qal'aliqir shahri xarobalari qaysi asrlarga oid bo'lgan?
A) mil.avv.V-IV asr
B) mil.avv.VII asr
C) mil.avv.IV-III asr
D) mil.avv.VII-II asr
4. Xorazmdagi qaysi yodgorlikda mahalliy hukmdorning ulkan qal'asi bunyod etilgan edi?
A) Qal'aliqir yodgorligi
B) Ko'zaliqir yodgorligi
C) Oybo'yirqal'a yodgorligi
D) Jonbosqal'a yodgorligi
5. Xorazmdagi qadimgi shaharlar Jonbosqal'a va Qo'yqirilganqal'a qaysi asrlarga oidligini aniqlang?
A) mil.avv.IV-III asrlar
B) milodiy II-III asrlar
C) mil.avv.V-IV asrlar
D) mil.avv.III-II asrlar
6. Qaysi shahar xarobalari ostidan aylana shaklda qurilgan mustahkam ibodatxona qoldiqlari topilgan edi?
A) Jonbosqal'a shahri
B) Qo'yqirilganqal'a shahri
C) Tuproqqal'a shahri
D) Qal'aliqir shahri
7. Tuproqqal'a shahrida qachon ulug'vor va muhtasham qurilish ishlari amalga oshirilgan edi?
A) milodiy II-III asrlar
B) milodiy V-VI asrlar
C) milodiy III-IV asrlar
D) milodiy I-II asrlar
8. Xorazmda kumush va mis tangalar qachondan zarb qilinib boshlangan?
A) milodiy asr boshlarida
B) mil.avv.I asrda
C) mil.avv.I asr va milodiy asr boshlarida
D) mil.avv.II asrda
9. Xorazmdagi qaysi yodgorlikdan O'rta Osiyo bo'yicha eng qadimgi yozuvlar topilgan?
A) Jonbosqal'a va Qo'yqirilganqal'a
B) Qal'aliqir va Qo'yqirilganqal'a
C) Ko'zaliqir va Oybo'yirqal'a
D) Oybo'yirqal'a va Qo'yqirilganqal'a
10. Oybuyirqal'a yodgorligi qaysi asrga oidligini aniqlang?

Shuhratbek.uz

A) mil.avv.VII asrlar
B) mil.avv.VI-V asrlar
C) mil.avv.III-II asrlar
D) mil.avv.V-IV asrlar
11. Xorazmdagi qaysi yodgorlikdan qadimgi xum sirtiga chekilgan yozuv topilganligini aniqlang?
A) Qo'yqirilganqal'a yodgorligi
B) Qalaliqir yodgorligi
C) Tuproqqal'a yodgorligi
D) Oybo'yirqal'a yodgorligi
12. Xorazmdagi qaysi yodgorlikdan qadimiy mahalliy yozuvlar topilgan edi?
A) Qalaliqir yodgorligi
B) Qo'yqirilganqal'a yodgorligi
C) Tuproqqal'a yodgorligi
D) Oybo'yirqal'a yodgorligi
13. Xorazmda I asrda ishlab chiqilgan mahalliy taqvimdan qachongacha foydalanilgan edi?
A) VI asrgacha
B) VII asrgacha
C) V asrgacha
D) VIII asrgacha
14. Qang' davlati Xitoy manabalarida qanday atalgan edi?
A) Qang'yuy
B) Qang'dez
C) Bityan
D) Qanha
15. Saklar Qang' davlatiga qachon asos solgan edilar?
A) mil.avv.III asrda
B) mil.avv.V asrda
C) mil.avv.II asrda
D) mil.avv.IV asrda
16. Qang' davlati poytaxti qaysi shahar bo'lgan edi?
A) Qang'dez
B) Ershi
C) Qang'yuy
D) Ko'zaliqir
17. Qang'dez shahri xarobalari hozirgi qaysi hududda bo'lganligini aniqlang?
A) Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanida
B) Buxoro viloyati Qorako'l tumanida
C) Farg'ona viloyati Narpay tumanida
D) Samarqand viloyati Poyariq tumanida
18. Xitoy tarixchilari Qang'dez shahrini nima deb ataganlar?
A) Dovon
B) Parkana
C) Qang'ha
D) Bityan
19. Qang' qachon qabilalarning eng qudratli davlat birlashmasiga aylangan edi?
A) mil.avv.I asrda
B) mil.avv.II asrda
C) mil.avv.IV asrda
D) mil.avv.III asrda
20. Qang' davlatining asosiy shaharlari qayerda joylashgan edi?
A) CHimkent viloyatida
B) Sirdaryo sohillarida

Shuhratbek.uz

C) hamma javoblar to'g'ri
D) Toshkent vohasida
21. Qang' davlatidan Buyuk Ipak Yo'lining qaysi tarmog'i o'tgan edi?
A) shimoliy tarmog'i
B) janubiy tarmog'i
C) g'arbiy tarmog'i
D) sharqiy tarmog'i
22. Qang' davlatining aholisi qanday atalgan edi?
A) saklar
B) qang'dezlilar
C) qang'arlar
D) qang'yuylar
23. Qang' davlati va Xitoy o'rtasida nima sababdan urushlar kelib chiqqan edi?
A) hamma javoblar to'g'ri
B) bir-biriga chegaradosh bo'lganligi tufayli
C) zotdor otlar tufayli
D) Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'i o'tganligi tufayli
24. Qang' davlati qachon parchalanib ketganligini aniqlang?
A) IV asrda
B) III asrda
C) II asrda
D) I asrda
25. Qang' davlati hozirgi qaysi hududda joylashganligini aniqlang?
A) Toshkent viloyatida
B) CHimkent viloyatida
C) hamma javoblar to'g'ri
D) Sirdaryo havzasida
26. Xitoy manbalarida Dovon deb nomlangan davlat boshqa manbalarda qanday atalgan edi?
A) Bityan
B) Parkana
C) Ershi
D) Ansi
27. Dovon davlati qaysi asrda mavjud bo'lganligini aniqlang?
A) mil.avv.III-milodiy II asrlarda
B) mil.avv.III-milodiy III asrlarda
C) mil.avv.II-milodiy III asrlarda
D) mil.avv.IV-milodiy I asrlarda
28. Dovon davlati haqidagi Xitoy yilnomalari qaysi asrlarga oid bo'lgan?
A) II-III asrlarga
B) mil.avv.III asrga
C) I – II asrlarga
D) mil.avv.II-milodiy I asrlarga
29. Xitoy tarixchilarining ma'lumotiga ko'ra qaysi davlat aholisi 70 dan ortiq shaharlarda yashagan?
A) YUnon- Baqtriya davlati
B) Dovon davlati
C) Qang' davlati
D) Kushon davlati
30. Dovon davlatida bo'lgan Xitoy sayyohi kimligini aniqlang?
A) U-Di
B) Che Lin
C) Chjan Syan

Shuhratbek.uz

D) Lyu Ban
31. Xon sulolasi davrida Dovon davlatining shimoliy hududlari qaysi dalat bilan chegaradosh bo'lgan?
A) Xorazm davlati
B) Baqtriya davlati
C) Qang' davlati
D) Kushon davlati
32. Dovon davlati yuechjilar davlati(Kushon podsholigi) bilan qaysi tomondan chegeradosh bo'lgan?
A) sharq tomondan
B) g'arb tomondan
C) janub tomondan
D) shimol tomondan
33. Dovon davlatining poytaxtini aniqlang?
A) Ershi
B) Bityan
C) Uchqo'rg'on
D) SHo'rabashat
34. Dovon davlatida Ershi shahrini qaysi davlat qo'shini qo'lga kiritgan edi?
A) Xitoy
B) YUnon-Baqtriya
C) Kushon
D) Qang'
35. Xitoy hukmdorlari qaysi davlatdagi otlarga «samoviy otlar» deb nom berganlar?
A) Xorazm davlati
B) Dovon davlati
C) Kushon davlati
D) Qang' davlati
36. Farg'ona davlati qachon yuksak taraqqiy etgan edi?
A) mil.avv.IV-III asrlarda
B) mil.avv.III-II asrlarda
C) milodiy I asrda
D) mil.avv.II-I asrlarda
37. Sho'rabashat, Uchqo'rg'on shaharlari qadimgi qaysi davlat hududida bo'lganligini aniqlang?
A) Qang' davlati
B) Dovon davlati
C) YUnon-Baqtriya davlati
D) Kushon davlati
38. Dovon davlati milodiy II asrda nima sababdan barham topganligini aniqlang?
A) aholi boshqa hududga ko'chib o'tgan
B) dehqonchilik yerlari cho'llashib, yaroqsiz holga keloib qolgan
C) ko'chmanchi qabilalar bosib olgan
D) kuchli zilzila bo'lgan

Shuhratbek.uz

## 42-43-Kushon podsholigi (29)

### Testlar

1. Ko'chmanchi yuechji qabilalari qachon Yunon-Baqtriya davlatiga bostirib kirgan edilar?
A) mil.avv.250-yilda
B) mil.avv.40-30-yillarda
C) mil.avv.240-230-yillarda
D) mil.avv.140-130-yillarda
2. Yuechji qabilalari tarixda qanday nomlar bilan atalgan?
A) «kushonlar»
B) «eftallar»
C) «xaytal»
D) «saka-tigraxauda»
3. Yunon-Baqtriya davlatining uzil-kesil bo'linib ketishiga nima sabab bo'lgan edi?
A) turli qabilalarning hujumi
B) Kushonlarning hujumi
C) Makedoniyalik Aleksandrning hujumi
D) Parfiya davlatining hujumi
4. Birlashgan besh yuechji qabilasining birinchi hukmdorini aniqlang?
A) Diodot
B) Kudzula Kadfiz
C) Kanishka
D) Vima Kadfiz
5. Qaysi hukmdor davrida Afg'oniston va Kashmir Kushon davlatiga qo'shib olingan?
A) Kanishka
B) Vasishka
C) Vima Kadfiz
D) Kudzula Kadfiz
6. Kushon podshosi Kudzula Kadfizning vorisi kim bo'lgan?
A) Vasudeva
B) Vima Kadfiz
C) Kanishka
D) Vasishka
7. Kushon podshosi Kanishka davlat poytaxtini Baqtriyadan qayerga ko'chirgan edi?
A) Ershiga
B) Oqqo'rg'onga
C) Peshavorga
D) Xo'tanga
8. Qaysi podsho davrida Kushon davlati hududi Hindiston va Xo'tandan O'zbekistonning janubiy viloyatlari va Afg'onistongacha bo'lgan hududlarni egallagan?
A) Kudzula Kadfiz
B) Vasudeva
C) Vima Kadfiz
D) Kanishka
9. Kushon davlatiga qachon asos solinganligini aniqlang?
A) mil.avv.I asr
B) mil.avv.III asr
C) mil.avv.IV asr
D) mil.avv.II asr
10. Kushon davlati qachon to'xtovsiz urushlar natijasida inqirozga yuz tutgan edi?
A) IV asrda

Shuhratbek.uz

B) I asrda
C) II asrda
D) III asrda
11. Kushon davlati qachon parchalanib ketgan edi?
A) V asrda
B) II asrda
C) III asrda
D) IV asrda
12. Kushon davlatida qaysi podsho davridan hukmdor nomi ko'rsatilgan tanga zarb qilish boshlangan?
A) Kanishka
B) Vasudeva
C) Kudzula Kadfiz
D) Vima Kadfiz
13. Kushon podshosi Kanishka qaysi yillarda hukmron bo'lganligini aniqlang?
A) 123-127-yillarda
B) 78-123-yillarda
C) 15-51-yillarda
D) 51-78-yillarda
14. Kushon davlati qaysi podsho davridan taraqqiyotining cho'qqisiga erishib, kuchli saltanatga aylangan edi?
A) Vasishka
B) Vima Kadfiz
C) Kanishka
D) Kudzula Kadfiz
15. Qaysi podsho davrida Kushon davlati Hindiston, Xitoy, Rim imperiyasi bilan savdo va elchilik munosabatlarini yo'lga qo'ygan?
A) Kudzula Kadfiz
B) Kanishka
C) Vima Kadfiz
D) Vasishka
16. Kushon davlati iqtisodiyotining asosini nima tashkil qilganligini aniqlang?
A) dexqonchilik
B) hunarmandchilik
C) hamma javoblar to'g'ri
D) savdo-sotiq
17. Kushon davlatida savdo-sotiq va madaniy aloqalar tufayli qaysi yozuv keng tarqalgan?
A) baqtriya yozuvi
B) oromiy yozuvi
C) so'g'd yozuvi
D) finikiya yozuvi
18. Oromiy yozuvi qayerda paydo bo'lganligini aniqlang?
A) Finikiyada
B) Sharqiy Yevropada
C) G'arbiy Osiyoda
D) Uralda
19. Qaysi yodgorlikdan oromiy yozuvi asosidagi kushon-baqtriya alifbosi topilgan?
A) Oybo'yirqal'a
B) Surxko'tal
C) Qadimgi Termiz
D) Afrosiyob
20. Qaysi yozuv harflari burchakli, to'rtburchakli, aylana shaklida bo'lgan?

Shuhratbek.uz

A) kushon yozuvi
B) oromiy yozuvi
C) so'g'd yozuvi
D) xorazm yozuvi
21. Yunon alifbosidagi kushon bitiklari qaysi yodgorlikdan topilganligini aniqlang?
A) Qoratepa
B) Xolchayon
C) Dalvarzintepa
D) Surxko'tal
22. Surxko'tal yodgorligi qayerdaligini aniqlang?
A) Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanida
B) Amudaryoning Orol dengiziga quyilish joyida
C) Afg'onistonning Qunduz shahrida
D) Afg'onistonning Qobul viloyatida
23. Oromiy alifbosi asosidagi xorazmiy va so'g'diy yozuvlar qaysi hududda keng tarqalganligini aniqlang?
A) Zarafshon vodiysida
B) Qashqadaryo vodiysida
C) hamma javoblar to'g'ri
D) Amudaryoning quyi oqimida
24. Kushon davlatiga qaysi podsho davridan buddaviylik dini kirib kelgan edi?
A) Kanishka
B) Vima Kadfiz
C) Vasudeva
D) Kudzula Kadfiz
25. Buddaviylik dini O'rta Osiyoda qachongacha mavjud bo'lgan edi?
A) VIII asrgacha
B) V asrgacha
C) VII asrgacha
D) VI asrgacha
26. Kushon davlati tashkil topayotganda aholi qaysi dinga e'tiqod qilar edi?
A) moniylik
B) shomonlik
C) buddaviylik
D) zardushtiylik
27. Kushon hukmdori saroyi topilgan yodgorlikni aniqlang?
A) Xolchayon
B) Qoratepa
C) Dalvarzintepa
D) Surxko'tal
28. Kushon davriga oid buddaviylik ibodatxonalari topilgan yodgorlikni aniqlang?
A) hamma javoblar to'g'ri
B) Fayoztepa
C) Qoratepa
D) Dalvarzintepa
29. Ud cholg'u asbobini chalayotgan ayollar tasvirlangan friz qaysi yodgorlikdan topilgan?
A) Xolchayon
B) Dalvarzintepa
C) Qoratepa
D) Ayritom

Shuhratbek.uz

## 44-Buyuk Ipak yo'li (25)

### Testlar

1. Buyuk Ipak yo'li qachon vujudga kelganligini aniqlang?
A) milodiy I asrda
B) mil.avv.II asrda
C) mil.avv.I asrda.
D) mil.avv.III asrda
2. Buyuk Ipak yo'li dastlab qanday nomlangan edi?
A) «Shoh yo'li»
B) «Oltin yo'l»
C) «Buyuk meridianal yo'l»
D) «La'l yo'li»
3. «Buyuk meridianal yo'l»ga «Ipak yo'li» nomi qachon berilgan edi?
A) 1887-yil
B) 1870-yil
C) 1822-yil
D) 1877-yil
4. «Buyuk meridianal yo'l»ga «Ipak yo'li» nomini kim berganligini aniqlang?
A) A.Okladnikov
B) F.SHompalyon
C) F.Rixtgofen
D) G.SHlimann
5. O'rta Osiyoda «La'l yo'li» qachon vujudga kelgan edi?
A) mil.avv.II asrda
B) mil.avv.1 mingyillikda
C) mil.avv.V asrda
D) mil.avv.3-2 mingyillikda
6. «La'l yo'li» qayerdan o'tganligini aniqlang?
A) Xitoydan boshlanib Eron, Old Osiyo, O'rtayer dengizi davlatlaridan o'tgan
B) Ahamoniylar dalatidan O'rta Osiyoga o'tgan
C) Pomir tog'laridan boshlab Eron, Old Osiyo, Misr orqali o'tgan
D) Qadimgi SHarq va Yevropadan o'tgan
7. Qadimda yarim nodir la'l toshi(lojuvard) qaysi tog'dan olinar edi?
A) Oloy
B) Tyan-SHan
C) Pomir
D) Himolay
8. Mil.avv.VI-IV asrlarda Kichik Osiyo shaharlarini, O'rtayer dengizi bo'yidagi Efes, Sard shaharlarini Eron poytaxti - Suza shahri bilan bog'lagan yo'lni aniqlang?
A) «La'l yo'li»
B) «Oltin yo'l»
C) «Shoh yo'li»
D) «Buyuk meridianal yo'l»
9. Buyuk Ipak yo'lining uzunligini aniqlang?
A) 22 ming km
B) 2 ming km
C) 12 ming km
D) 10 ming km
10. Buyuk Ipak yo'li qaysi hududlarni bog'lab turgan yo'l bo'lgan?
A) Sariq dengizdan boshlanib O'rta Osiyo, Eronga borgan

Shuhratbek.uz

B) Sariq dengizdan boshlanib SHarqiy Turkistonga borgan
C) hamma javoblar to'g'ri
D) Sariq dengizdan boshlanib Misr orqali O'rtayer dengizi sohillarigacha borgan
11. Buyuk Ipak yo'li orqali So'g'diyonadan Xitoyga qanday mahsulotlar olib borilar edi?
A) jun gazlama, gilam, zeb-ziynat va qimmatbaho toshlar
B) ip-gazlama va paxta chigiti
C) zeb-ziynat va qimmatbaho toshlar, otlar
D) jun gazlam, gilam, tuyalar
12. Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoyga tuyalar qayerdan olib borilganini aniqlang?
A) Baqtriyadan
B) So'g'diyonadan
C) Badaxshondan
D) Farg'onadan
13. Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoyga Farg'onadan qanday mahsulot olib borilar edi?
A) guruch
B) ip-gazlama
C) zotli otlar
D) zeb-ziynat buyumlari
14. Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoyga la'l qayerdan olib borilganini aniqlang?
A) So'g'diyonadan
B) Badaxshondan
C) Hindistondan
D) Farg'onadan
15. Buyuk Ipak yo'li orqali O'rta Osiyoga ip-gazlama va paxta chigiti qayerdan olib kelingan?
A) O'rtayer dengiz bo'yi shaxarlaridan
B) Hindistondan
C) Misrdan
D) Xitoydan
16. Buyuk Ipak yo'li orqali O'rta Osiyoga Xitoydan qanday mahsulot keltirilganini aniqlang?
A) ip-gazalamalar
B) guruch
C) gilam
D) jun gazlamalar
17. Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoyga uzum, yong'oq, anor va boshqa mahsulotlar qayerdan olib kelinar edi?
A) O'rta Osiyodan
B) hamma javoblar to'g'ri
C) Hindistondan
D) Badaxshondan
18. Xitoy imperatori U-Di qachon elchi Chjan Syanni ittifoqchi topish uchun jo'natgan edi?
A) mil.avv.138-yil
B) mil.avv.78-yil
C) mil.avv.118-yil
D) mil.avv.128-yil
19. Xitoy elchisi Chjan Syan xunnlar qo'liga asir tushib necha yil hibsda yotgan edi?
A) besh yil
B) o'n besh yil
C) ikki yil
D) o'n yil
20. Xitoy elchisi Chjan Syan qayerda xunn qabilalariga asir tushgan edi?
A) Oloy vodiysida
B) Norin daryosi bo'yida

Shuhratbek.uz

C) Xitoyda
D) Issiqko'lda
21. Xitoyliklar qayerning otlarini «samoviy» deb nomlaganlar?
A) Xorazm otlarini
B) Misr otlarini
C) Farg'ona otlarini
D) Hindsiton otlarini
22. Buyuk Ipak yo'liga kimning bosib o'tgan yo'li asos bo'lgan edi?
A) Chjan Syan
B) Makedoniyalki Aleksandr
C) U-Di
D) Che Lin
23. Buyuk Ipak yo'li qaysi hududda ikki tarmoqqa bo'lingan?
A) Eronda
B) Badaxshonda
C) Xitoyda
D) Farg'onada
24. Buyuk Ipak yo'li ikki tarmoqqa bo'lingan joydan yozda Toshkentga kelgan yo'nalishni aniqlang?
A) hamma javoblar to'g'ri
B) Qamchiq dovoni orqali Iloq vohasiga kelgan
C) O'zgandan Axsi shahriga kelgan
D) Iloq vohasidan Toshkentga kelgan
25. Buyuk Ipak yo'li ikki tarmoqqa bo'lingan joydan janubiy yo'nalish qayerlardan o'tganligini aniqlang?
A) O'zgandan Marg'ilonga kelgan
B) Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoroga kelgan
C) hamma javoblar to'g'ri
D) O'zgandan O'sh, Quvaga kelgan

Shuhratbek.uz

## 45-Italiya va uning aholisi (21)

### Testlar

1. Italiya davlati qaysi yarimorolda joylashgan edi?
A) Arabiston yarimorolida
B) Apennin yarimorolida
C) Bolqon yarimorolida
D) Pireney yarimorolida
2. Qadimgi Italiya aholisining asosiy mashg’uloti nima bo’lgan?
A) chorvachilik va savdo-sotiq
B) savdo-sotiq va dengizchilik
C) dehqonchilik va savdo-sotiq
D) dehqonchilik va chorvachilik
3. «Italiya» so’zi yunonchadan qanday tarjima qilinadi?
A) «echkilar o’lkasi»
B) «buzoqchalar o’lkasi»
C) «qoramollar o’lkasi»
D) «harbiylar o’lkasi»
4. Apennin yarimorolida eng katta daryo qaysi bo’lgan?
A) Po daryosi
B) Tibr daryosi
C) Politimet daryosi
D) Tirren daryosi
5. Apennin yarimorolining barcha qabilalari qanday nomlangan?
A) ellinlar
B) rimliklar
C) samniylar
D) italiklar
6. Italiklar orasida ko’pchilikni tashkil qilgan qabilalarni aniqlang.
A) hamma javoblar to’g’ri
B) sabiniylar
C) samniylar
D) lotinlar
7. Italiklar kelib chiqishi bo’yicha qaysi xalqqa yaqin bo’lganlar?
A) germanlarga
B) oriylarga
C) keltlarga
D) yunonlarga
8. Kichik Osiyodan ko’chib kelgan etrusklar Italiyaning qaysi tomonida yashaganlar?
A) shimoliy qismida
B) sharqiy qismida
C) janubiy qismida
D) g’arbiy qismida
9. Italiyada etrusklarning asosiy mashg’uloti nima bo’lganligini aniqlang.
A) savdo-sotiq
B) chorvachilik
C) hamma javoblar to’g’ri
D) dehqonchilik
10. Italiyada etrusklar 12 shahar – davlat tuzgan sanani aniqlang.
A) mil.avv.VII asrda
B) mil.avv.V asrda

Shuhratbek.uz

C) mil.avv.VI asrda
D) mil.avv.VIII asrda
11. Etrusk shahar davlatlari qachon yunon koloniyalari bilan kurash boshlaganlar?
A) mil.avv.VII asrda
B) mil.avv.VIII asrda
C) mil.avv.V asrda
D) mil.avv.VI asrda
12. Etrusk shahar davlatlari yunon koloniyalari bilan kurash boshlaganda qaysi mamlakat ularga qo'shilgan edi?
A) Karfagen
B) Galliya
C) YUnoniston
D) Ispaniya
13. Etrusklarning yunon koloniyalari bilan kurashi natijasida….?
A) etrusk sivilizatsiyasi rivojlandi
B) etrusk sivilizatsiyasi zavolga yuz tutdi
C) etrusklar g'alaba qozonishdi
D) etrusklar boshqa hududlarga ko'chib ketishga majbur bo'ldilar
14. Rim shahri qaysi daryo bo'yidagi dehqonchilik manzilgohlaridan boshlangan edi?
A) Frot daryosi
B) Dajla daryosi
C) Po daryosi
D) Tibr daryosi
15. Qadimgi qaysi shahar yettita tepalikda joylashgan edi?
A) Fiva
B) Sparta
C) Afina
D) Rim
16. Rim shahri asos solingan sanani aniqlang.
A) mil.avv.753-yil
B) mil.avv.509-yil
C) mil.avv.750-yil
D) mil.avv.573-yil
17. Rim shahriga kim asos solgan edi?
A) Sezar
B) Tarkviniy
C) Romul va Rem
D) Oktavian Avgust
18. Bugungi kunda qaysi shaharning timsoli Ona bo'ri hisoblanadi?
A) Rim
B) Afina
C) Sparta
D) Dehli
19. Rim aholisi ko'p shaharga aylangan sanani aniqlang.
A) mil.avv.VII asr
B) mil.avv.VI asr
C) mil.avv.IV asr
D) mil.avv.V asr
20. Rimda Mag'rur Tarkviniy qachon saylab qo'yilgan hukmdorni o'ldirib hokimiyatni egallab olgan?
A) mil.avv.590-yil
B) mil.avv.490-yil

Shuhratbek.uz

C) mil.avv.509-yil
D) mil.avv.500-yil
21. Mil.avv.509-yilda Rim ….?
A) Respublika deb e'lon qilindi
B) Sezar hokimiyatga keldi
C) Etrusk sivilizatsiyasini tugatdi
D) Imperiya deb e'lon qilindi

Shuhratbek.uz

## 46-Rim respublikasi (26)

### Testlar

1. Rimda Xalq majlisi qanday vazifalarni bajarar edi?
A) hamma javoblar to'g'ri
B) qonunlarni qabul qilar va bekor etar edi
C) urush e'lon qilar, sulh tuzar edi
D) barcha muxim mansabdor shaxslarni tayinlar edi
2. Rimda Xalq majlisi qarorini qaysi organ tasdiqlagan?
A) Konsul
B) Xalq tribuni
C) Beshyuzlar kengashi
D) Senat
3. «Senat» so'zi lotinchadan tarjima qilinganda qanday ma'noni bildiradi?
A) «xalq kengashi»
B) «umumiy ish»
C) «hukmdorlar kengashi»
D) «oqsoqollar kengashi»
4. Rimda senatorlarning avlodlari qanday nomlangan?
A) plebeylar
B) patritsiylar
C) meteklar
D) periyeklar
5. Rimning oddiy xalqi qanday nomlangan?
A) demos
B) plebeylar
C) ilotlar
D) patritsiylar
6. Qadimgi Rim boshqaruvida dastlab faqat kimlar ishtirok qilar edilar?
A) patritsiylar
B) konsullar
C) senatorlar
D) plebeylar
7. Rim davlati qachondan respublika deb yuritila boshlangan?
A) mil.avv.V asr boshidan
B) mil.avv.VII asr boshidan
C) mil.avv.VI asr oxiridan
D) mil.avv.VI asr boshidan
8. Qaysi so'zning lotinchadan tarjimasi «xalq ishi, umumiy ish» degan ma'nolarni anglatadi?
A) «senat»
B) «kandida»
C) «respublika»
D) «konsul»
9. Rimda saylov kuni konsullikka o'z nomzodini qo'ygan badavlat quldorlar kiyib yuruvchi kiyim nomini aniqlang.
A) «kandida»
B) «toga»
C) «dubulg'a»
D) «fata»
10. Qadimgi Rimda davlatni boshqaruvchi asosiy mansabdor shaxslar qanday atalgan?
A) senator

Shuhratbek.uz

B) liktor
C) konsul
D) diktator
11. Rimda hech bir saylovsiz Senatda o’rin egallab oladigan va uning umrbod a’zosiga aylanadigan lavozimni aniqlang.
A) diktator
B) konsul
C) patritsiylar
D) liktor
12. Rimda urush boshlanganda yoki xalq qo’zg’oloni paytida tayinlanuvchi yakkaboshchi hukmdorni aniqlang.
A) liktor
B) konsul
C) senator
D) diktator
13. Rimda diktatorning hokimiyati qancha vaqt davom etgan?
A) favqulodda vaziyat tugaganga qadar
B) ikki yil
C) olti oy
D) bir yil
14. Rimda Senat a’zolari necha kishidan iborat bo’lgan?
A) 250 kishi
B) 300 kishi
C) 350 kishi
D) 200 kishi
15. Rimda konsulning himoya qilib yuruvchi faxriy qorovul qanday atalgan?
A) strateg
B) liktor
C) plebey
D) diktator
16. Rimda qaysi lavozim ikki nafar bo’lib, ular muhim masalalarni hal etayotganda maslahatlashib olishi kerak bo’lgan?
A) liktor
B) diktator
C) konsul
D) senator
17. Rimda konsullar harbiy davrlarda qanday vazifani bajarganlar?
A) hamma javoblar to’g’ri
B) rimliklarni sud qilgan
C) Rim Respublikasini boshqarganlar
D) qo’shinlarga qo’mondonlik qilgan
18. Rimda konsullar har yili hisobot beruvchi organni aniqlang.
A) Senat
B) Xalq tribuni
C) Xalq majlisi
D) Beshyuzlar kengashi
19. Rimda qashshoq rimliklar manfaatini himoya qiluvchi organ qaysi bo’lgan?
A) Konsul
B) Xalq tribuni
C) Senat
D) Xalq majlisi
20. Rimda Xalq tribunlari qanday saylanar edi?

Shuhratbek.uz

A) Senat tomonidan saylangan
B) fuqarolar orasidan yashirin ovoz bilan saylangan
C) Konsul tomonidan saylangan
D) Diktator saylagan
21. Rimda qaysi organ «veto» so'zini aytishi bilan qonun qabul qilinmas edi?
A) Xalq majlisi
B) Konsul
C) Xalq tribuni
D) Senat
22. «Veto» atamasining ma'nosini aniqlang.
A) «tasdiqlayman»
B) «taqiqlayman»
C) «saylayman»
D) «qabul qilaman»
23. Qadimgi Rim qonunchiligi nimaga asoslangan edi?
A) harbiy qonunlarga
B) majburiy qonunlarga
C) yozma qonunlarga
D) og'zaki qonunlarga
24. Qachon Rimning barcha fuqarolari mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida teng deb hisoblanadigan qonunlar qabul qilingan edi?
A) mil.avv.VI asr o'rtalarida
B) mil.avv.III asr o'rtalarida
C) mil.avv.V asr o'rtalarida
D) mil.avv.IV asr o'rtalarida
25. Rimda «12 jadval qonunlari» kimlarning talabi bilan qabul qilingan edi?
A) plebeylar
B) ilotlar
C) meteklar
D) patritsiylar
26. Rimda qonunlar kimlarga taalluqli bo'lmagan?
A) ajnabiylarga
B) plebeylarga
C) qullarga
D) patritsiylarga

Shuhratbek.uz

## 47-Rim respublikasining hayoti (28)

### Testlar

1. Rimda shisha yoki tosh parchalaridan ishlangan suratlar qanday atalgan?
A) freska
B) miniatyura
C) mozaika
D) villa
2. Rimda shohona koshona – uy-joylar qanday atalgan?
A) akveduk
B) villa
C) amfora
D) mozaika
3. Rimda selgimagan(qurimagan) suvoqqa ishlangan rasmlar qanday nomlangan?
A) freska
B) mozaika
C) miniatyura
D) villa
4. Rimda shahar markazi qanday atalganligini aniqlang.
A) akveduk
B) altar
C) forum
D) agora
5. Rimda shaharlar markazidagi Forumda nimalar joylashgan edi?
A) markaziy ibodatxona
B) xalq yig'ilishi uchun joy
C) hamma javoblar to'g'ri
D) bozor maydoni
6. Rimda shaharga suv oqib keluvchi osma suv quvurlari qanday atalgan?
A) amfora
B) villa
C) altar
D) akveduk
7. Rim bozorlarida eng bozori chaqqon tovar nima bo'lgan?
A) g'alla
B) gazlama
C) qullar
D) metal
8. Rimda o'g'il bolalar necha yoshgacha pushti yo'lli toga kiyib yurishgan?
A) 7 yoshgacha
B) 14 yoshgacha
C) 12 yoshgacha
D) 10 yoshgacha
9. Rimda urush xudosini aniqlang.
A) Merkuriy
B) Mars
C) Ares
D) YUpiter
10. Rimda Merkuriy qanday xudo bo'lgan?
A) urush xudosi
B) savdo-sotiq xudosi

Shuhratbek.uz

C) olov va temirchilur xudosi
D) chaqmoq xudosi
11. Rimning bosh xudosi, osmon, momaqaldiroq, yashin podshosini aniqlang.
A) Merkuriy
B) Ares
C) Mars
D) Yupiter
12. Rimda qaysi xudoni davlatning homiysi, xalqlar va davlatlar taqdirini boshqarib turadi deb hisoblashgan?
A) Mars
B) Vulkan
C) Poseydon
D) Yupiter
13. Rimda dengiz xudosini aniqlang.
A) Neptun
B) Morfey
C) YUpiter
D) Mars
14. Rimda Morfey qanday xudo hisoblangan?
A) ov xudosi
B) dengiz xudosi
C) urush xudosi
D) uyqu xudosi
15. Rimda ov xudosini aniqlang.
A) Vulkan
B) Diana
C) Neptun
D) Morfey
16. Rimda Vulkan qanday xudo deb hisoblangan?
A) urush xudosi
B) dengiz xudosi
C) uyqu xudosi
D) olov va temirchilar xudosi
17. Rimda bahor va sevgi xudosini aniqlang.
A) YUstitsiya
B) Merkuriy
C) Venera
D) Diana
18. Rimda Bahus qanday xudo bo'lganini aniqlang.
A) may xudosi
B) ov xudosi
C) bahor xudosi
D) uyqu xudosi
19. Rimda odil sudlov ilohasini aniqlang.
A) Diana
B) Merkuriy
C) Fortuna
D) Yustitsiya
20. Rimda qaysi iloha ko'zlari bog'langan ayol qiyofasida tasvirlangan?
A) Mars
B) Furiya
C) Yustitsiya

Shuhratbek.uz

D) Fortuna
21. Rimda Fortuna qanday iloha hisoblangan?
A) taqdir ilohasi
B) may ilohasi
C) adliya ilohasi
D) sevgi ilohasi
22. Rimda qasos va intiqom ilohalari, yovuz, qasoskor ayollar siymosida tasvirlangan ilohani belgilang?
A) Diana
B) Furiya
C) Yustitsiya
D) Fortuna
23. Rimda ibodatxona yonida qurbonlik baxshida etiladigan ko’tarma joy qanday atalgan?
A) amfora
B) altar
C) vesta
D) akveduk
24. Rimda diniy marosimlarni o’tkazilishini nazorat qiluvchi kohinlar qanday atalar edi?
A) konsullar
B) avgurlar
C) pontifiklar
D) vestachi kohinalar
25. Rimda 5 nafardan 15 nafargacha ruhoniylar jamlangan pontifiklar hay’atiga kim rahbarlik qilar edi?
A) konsul
B) liktor
C) Buyuk pontifik
D) strateg
26. Rimda fol ochuvchi kohinlarni aniqlang.
A) pontifiklar
B) vestachi kohinalar
C) avgurlar
D) liktorlar
27. Rimda xonadon o’chog’i ilohasini aniqlang.
A) Vesta
B) Merkuriy
C) Furiya
D) Diana
28. Rimda ayol kohinlar majburiyati nimadan iborat bo’lgan?
A) muqaddas olovni saqlash
B) pontifiklar xizmatini qilish
C) pontifiklar ustidan nazorat qilish
D) diniy marosimlarni tartibli o’tkazish

Shuhratbek.uz

## 48-O'rtayer dengizida hukmronlik uchun kurash (26)

### Testlar

1. Rim armiyasida necha yoshli fuqarolar xizmat qila olar edilar?
A) 20 yoshdan 45 yoshgacha
B) 18 yoshdan 47 yoshgacha
C) 18 yoshdan 40 yoshgacha
D) 17 yoshdan 46 yoshgacha
2. Rimda 80 kishidan iborat bo'lgan jangchilar guruhi nima deb atalashini aniqlang.
A) kogorta
B) falanga
C) senturiy
D) legion
3. Rim armiyasida tarkibiga bir necha senturiylar kiradigan qismni aniqlang.
A) kogorta
B) falanga
C) goplit
D) legion
4. Rim armiyasida 10 ta kogorta kiradigan qism nima deb atalgan?
A) goplit
B) legion
C) senturiy
D) falanga
5. Rim armiyasida xizmat muddati necha yil bo'lgan?
A) 10 yil
B) 15 yil
C) 25 yil
D) 20 yil
6. Rim armiyasi zafardan so'ng Senat qaroriga ko'ra nishonlanadigan g'alaba qanday ataladi?
A) legion
B) triumf
C) katapulta
D) triyera
7. Rim sarkardalari qachon butun Italiyani zabt etishga erishganlar?
A) mil.avv.IV asr o'rtalarida
B) mil.avv.II asr o'rtalarida
C) mil.avv.I asr o'rtalarida
D) mil.avv.III asr o'rtalarida
8. Mil.avv.III asrlarda Sitsiliya orolining g'arbiy qismini qaysi davlat egallab olgan edi?
A) Ispaniya
B) Karfagen
C) Yunoniston
D) Finikiya
9. Rim va Karfagen o'rtasidagi urushlarga nima sabab bo'lgan edi?
A) Krit oroli uchun
B) Sardiniya oroli uchun
C) Kipr oroli uchun
D) Sitsiliya oroli uchun
10. Rim va Karfagen o'rtasidagi urushlar tarixga qanday nom bilan kirgan edi?
A) Puni urushlari

Shuhratbek.uz

B) Dengiz urushlari
C) Loydagi urushlar
D) Orol urushlari
11. Puni urushlari necha marta bo'lib o'tgan?
A) to'rt marotaba
B) bir marotaba
C) uch marotaba
D) ikki marotaba
12. Rimliklar qaysi davlatni Puna deb ataganliklarini aniqlang.
A) Galliyani
B) Yunonistonni
C) Karfagenni
D) Misrni
13. Birinchi Puni urushi qanday natija bilan tugagan edi?
A) karfagenliklar xiroj to'lashga majbur bo'lganlar
B) rimliklar Sitsiliya orolini bosib olganlar
C) hamma javoblar to'g'ri
D) rimliklar g'alab qozongan
14. Birinchi Puni urushidan ikki yil o'tgach rimliklar qaysi orolni bosib olganlar?
A) Korsika orolini
B) Korsika va Sitsiliya orollarini
C) Sitsiliya orolini
D) Sardiniya orolini
15. Sitsiliya orolini rimliklar egallagach Karfagen quldorlari qaysi davlatni bosib oladilar?
A) Sardiniya orolini
B) Ispaniyani
C) Korsika orolini
D) Portugaliyani
16. Ispaniyaga hujum qilgan Karfagen yollanma qo'shiniga kim sarkarda bo'lgan edi?
A) Gannibal
B) Miltiad
C) Leonid
D) Ssipion
17. Gannibal Kann yaqinida rimliklar armiyasini tor-mor etgan sanani aniqlang.
A) mil.avv.183-yil
B) mil.avv.213-yil
C) mil.avv.210-yil
D) mil.avv.216-yil
18. 70 ming rimlik legioner halok bo'lgan jangni aniqlang.
A) Zama shahri yaqinidagi jangda
B) Kann shahri yaqinidagi jangda
C) Sitsiliya orolidagi jangda
D) Vezuviy tog'idagi jangda
19. Mil.avv.202-yilda rimliklar tomonidan Gannibal qo'shini tor-mor qilingan hududni aniqlang.
A) Sirakuza shahri yaqinida
B) Zama shahri yaqinida
C) Kann shahri yaqinida
D) Kapua shahri yaqinida
20. Puni urushlarida Rim armiyasiga sarkardalik qilgan shaxsni aniqlang.
A) Sezar
B) Ssipion
C) Miltiad

Shuhratbek.uz

D) Gannibal
21. Karfagen sarkardasi Gannibal o'zini zaharlab o'ldirgan sanani aniqlang.
A) mil.avv.200-yil
B) mil.avv.216-yil
C) mil.avv.183-yil
D) mil.avv.218-yil
22. Uchinchi Puni urushi qachon bo'lgan edi?
A) mil.avv.I asr o'rtalarida
B) milodiy I asr o'rtalarida
C) mil.avv.III asr o'rtalarida
D) mil.avv.II asr o'rtalarida
23. Rim Senatining qaroriga ko'ra qarg'ish tekkan maskan deb e'lon qilingan shaharni aniqlang.
A) Karfagen
B) Afina
C) Zama
D) Sparta
24. Rim armiyasi qachon Karfagenni butunlay vayronaga aylantirgan edi?
A) milodiy 246-yil
B) mil.avv.183-yil
C) mil.avv.156-yil
D) mil.avv.146-yil
25. Rimliklar bosib olingan hududlarni qanday ataganlar?
A) koloniya
B) megapolis
C) polis
D) provinsiya
26. Rimda provinsiyalarni boshqaruvchi noiblar qanday atalar edi?
A) liktorlar
B) prokonsullar
C) diktatorlar
D) konsullar

Shuhratbek.uz

## 49-Qullar va gladiatorlar (9)

### Testlar

1. Rimda qullar mehnati quldorlar uchun foydali emasligi qachon ma’lum bo’lgan edi?
A) I-II asrlarda
B) V-VI asrlarda
C) II-III asrlarda
D) III-IV asrlarda
2. Rimda kimlarni «kolonlar» deb atashganligini aniqlang.
A) qul qilingan rimliklar
B) mayda yer ijarachilari
C) og’ir qurollangan askarlar
D) armiya yoshiga yetgan jangchilar
3. Rimda quldorlar tomonidan kichik yer, mehnat qurollari, urug’ bilan ta’minlangan qullar qanday atalgan?
A) «uy qullari»
B) «kulbali qullar»
C) «quldorli qullar»
D) «kolonlar»
4. Rimda 50 ming tomoshabin sig’adigan eng katta amfiteatrni aniqlang.
A) Kolizey
B) Parfenon
C) Term
D) Panteon
5. Qadimgi dunyoda eng ommaviy va uyushgan Spartak qo’zg’oloni qachon boshlangan?
A) mil.avv.72-yil
B) mil.avv.71-yil
C) mil.avv.74-yil
D) mil.avv.70-yil
6. Spartak qo’zg’oloni rahbari Spartak qaysi shahardagi gladiotorlik maktabiga sotib yuborilgan edi?
A) Peruziya
B) Kapuya
C) Mutina
D) Askul
7. Spartak qo’zg’olonini to’xtatish uchun yuborilgan Rim sarkardasini aniqlang.
A) Mark Krass
B) Ssipion
C) Oktavian Avgust
D) Mark Antoniy
8. Spartak qo’zg’olonchilari qachon tor-mor qilingan va Spartak ham halok bo’lgan?
A) mil.avv.71-yil
B) mil.avv.73-yil
C) mil.avv.74-yil
D) mil.avv.72-yil
9. Spartak qo’zg’oloni qatnashchilari qanday jazolangan edi?
A) uzoq orollarga surgan qilingan
B) dorga tortilgan
C) gladiotorlik maktablariga qaytarilgan
D) xochlarga mixlab tashlangan

Shuhratbek.uz

## 50-Rim respublikasining qulashi (33)

### Testlar

1. Rimda qachon muntazam yollanma qo'shinlarga tayanuvchi harbiy boshliqlar real kuchga aylanlanganlar?
A) mil.avv.II asrda
B) milodiy I asrda
C) mil.avv.I asrda
D) mil.avv.II asrda
2. Rimda Spartak qo'zg'oloni bostirilgach kim hokimiyat uchun ancha vaqt kurash olib borgan edi?
A) Pompey va Sezar
B) Pompey va Krass
C) Krass va Oktavian
D) Sezar va Krass
3. Rimda Sezarning obro'si ortishiga qayerda bo'lgan urushdagi g'alaba sabab bo'lgan?
A) Karfagen
B) Galliya
C) Sitsiliya
D) Ispaniya
4. Yuliy Sezar qachon Rim imperatori bo'lgan?
A) mil.avv.50-yil
B) mil.avv.44-yil
C) mil.avv.49-yil
D) mil.avv.48-yil
5. Kim Rimda yakkahokimlik uchun kurash boshlab «Qur'a tashlandi» degan edi?
A) Mark Antoniy
B) Pompey
C) Yuliy Sezar
D) Mark Krass
6. Rimda Yuliy Sezarni imperator bo'lishi uchun kambag'allar nima sababdan qo'llab-quvvatlagan edilar?
A) yer ajratib berishiga ishonganlar
B) uning sarkardalik iste'dodiga ishongan edilar
C) hamma javoblar to'g'ri
D) qarzlarni bekor qilishiga ishonganlar
7. Rimda Yuliy Sezar imperator bo'lganda Pompeyning qo'shini qaysi davlatda bo'lgan?
A) Ispaniyada
B) Misrda
C) Karfagenda
D) Sitsiliyada
8. Rimda Yuliy Sezarga qarshi fitnaga kim rahbarlik qilgan?
A) Brut
B) Krass
C) Kleopatra
D) Pompey
9. Rimda Yuliy Sezar hukmronligi qachon tugagan?
A) mil.avv.44-yil
B) mil.avv.49-yil
C) mil.avv.47-yil
D) mil.avv.46-yil
10. Rimda Sezar vafot etgach boshlanib ketgan fuqarolar urushida kim g'olib chiqqan edi?

Shuhratbek.uz

A) Krass
B) Pompey
C) Brutt
D) Oktavian Avgust
11. Rimda Yuliy Sezar vafot etgach kim Respublikani tiklashga urinib ko’rgan edi?
A) Oktavian Avgust
B) Krass
C) Brut
D) Pompey
12. Rimda Oktavian hukmdor bo’lganda unga qarshi chiqqan shaxsni aniqlang.
A) Ssipion
B) Mark Antoniy
C) Pompey
D) Brutt
13. Rim Senati Respublikaning dushmani deb e’lon qilgan shaxsni aniqlang.
A) Pompeyni
B) Bruttni
C) Oktavian Avgustni
D) Mark Antoniyni
14. Rimda Oktavian hukmdor bo’lganda qaysi davlatda Rim Respublikasi tarafdorlarini qo’llab-quvvatlash kuchayib ketgan edi?
A) Sitsiliya orolida
B) Ispaniyada
C) Yunonistonda
D) Karfagen
15. Rimda respublikachilar tarafdorlari tor-mor etilgach davlatni G’arbiy va Sharqiy qismlarga bo’lib olgan shaxslarni aniqlang.
A) Oktavian Avgust va Mark Antoniy
B) Pompey va Krass
C) Mark Antoniy va Kleopatra
D) Sezar va Oktavian Avgust
16. Misr malikasi Kleopatraga uylangan Rim sarkardasini aniqlang.
A) Sezar
B) Pompey
C) Mark Antoniy
D) Okttavian Avgust
17. Rimda Mark Antoniyning qaysi harakati Oktavian bilan jang bo’lishiga olib kelgan?
A) Respublikani qayta tiklashga urinishi
B) Oktavianga qarshi chiqqanligi
C) Rimning Sharqiy qismini Kleopatraga sovg’a qilishi
D) Sezarga suiqasd uyushtirganligi
18. Qachon Yunoniston qirg’oqlarida Antoniy va Oktavian flotlari o’rtasida jang bo’lgan?
A) mil.avv.30-yil
B) mil.avv.31-yil
C) mil.avv.44-yil
D) mil.avv.29-yil
19. Oktavian Avgust va Mark Antoniylar o’rtasida jang bo’layotganda Antoniy qochgan shaharni aniqlang.
A) Aleksandriya
B) Vezuviy
C) Kapuya
D) Karfagen

Shuhratbek.uz

20. Rimda Oktavian qachon Senatdan imperator unvoni va Avgust laqabini olgan edi?
A) mil.avv.40-yil
B) mil.avv.30-yil
C) mil.avv.29-yil
D) mil.avv.31-yil
21. Rimda senatorlar va Rim armiyasi legionlari sonini qisqartirgan imperatorni aniqlang.
A) YUliy Sezar
B) Oktavian Avgust
C) Pompey
D) Mark Antoniy
22. Rimda jangchilarni xizmat muddatini 20 yil qilib belgilagan imperatorni aniqlang.
A) Oktavian Avgust
B) Kaligula
C) Neron
D) Trayan
23. Qaysi imperator zamonida Rimda imperiya armiyasining umumiy soni 300 mingga yetgan edi?
A) Yuliy Sezar
B) Trayan
C) Konstantin
D) Oktavian Avgust
24. Rim imperatori Oktavian Avgust vafot etgan sanani aniqlang.
A) milodiy 14-yil
B) mil.avv.24-yil
C) mil.avv.14-yil
D) mil.avv.30-yil
25. Rim imperatori Oktavian Avgustning vorislari bo’lgan imperatorlarni aniqlang.
A) Kaligula va Neron
B) Trayan va Feodosiy
C) Kaligula va Trayan
D) Neron va Trayan
26. Rim imperiyasining «oltin asri» deb nomlangan davrni aniqlang.
A) I asr o’rtalari
B) II asr o’rtalari
C) mil.avv.I asr o’rtalari
D) III asr o’rtalari
27. Rimda milodiy 98-yilda taxtni egallagan imperatorni aniqlang.
A) Kaligula
B) Neron
C) Trayan
D) Feodosiy
28. Qaysi Rim imperatori Dunay daryosi bo’ylarida yashovchi daklar ustiga urushlar olib borgan edi?
A) Neron
B) Oktavian Avgust
C) Kaligula
D) Trayan
29. Rim qo’shinlari va daklar bilan urush manzalari tasvirlangan bo’rtma tasvirli yodgorlikni aniqlang.
A) Trayan kolonnasi
B) Kolizey kolonnasi
C) Avgust kolonnasi
D) Avgust byusti

Shuhratbek.uz

30. Qaysi Rim imperatori davrida Ossuriya va Mesopotamiya bosib olingan edi?
A) Oktavian Avgust
B) Trayan
C) Kaligula
D) Neron
31. Rim imperatori Trayanning Parfiya davlati bilan urushi qanday natija bilan tugagan?
A) muvaffaqiyatli tugagan
B) sulh tuzilgan
C) Trayan Parfiyaga hujum qilmagan edi
D) muvaffaqiyatsiz tugagan
32. Rimda qaysi imperator zamonida yolg’onchi chaqimchilikka asoslanib qatl etish bekor qilingan?
A) Neron
B) Yuliy Sezar
C) Trayan
D) Oktavian Avgust
33. Rim imperiyasi asoschisi kim bo’lganligini aniqlang.
A) Trayan
B) Mark Antoniy
C) Oktavian Avgust
D) Yuliy Sezar

Shuhratbek.uz

## 51-Rim imperiyasining yemirilishi (20)

### Testlar

1. Rim imperiyasining poytaxtini imperator Konstantin qachon Vizantiy shahriga ko'chirgan edi?
A) 476-yil
B) 330-yil
C) 395-yil
D) 410-yil
2. Vizantiy shahri joylashgan hududni aniqlang.
A) Dunayo daryosi sohilida
B) Pireney yarim orolida
C) Apennin yarim orolida
D) Bosfor bo'g'ozida
3. Qaysi shahar imperator sharafiga Konstantinapol deb nomlangan edi?
A) Karfagen shahri
B) Rim shahri
C) Vizantiya shahri
D) Afina shahri
4. Rim imperiyasi qachon G'arbiy va Sharqiy qismlarga ajralgan edi?
A) 410-yil
B) 395-yil
C) 390-yil
D) 330-yil
5. Rim imperiyasi ikki qismga ajralgan vaqtda imperatorning yagona hokimiyati saqlangan tomonini aniqlang.
A) har ikki tarafda ham imperator hokimiyati saqlangan
B) G'arbiy Rim imperiyasi
C) har ikki taraf ham parchalangan
D) Sharqiy Rim imperiyasi
6. Milodiy III asrda Rimda….
A) imperiya zaiflashgan
B) respublika tuzumi o'rnatilgan
C) Puni urushlari uyushtirgan
D) imperiya o'rnatilgan
7. Rimda qaysi imperator zamonidan bosqinchilik urushlari olib borilmagan edi?
A) Yuliy Sezar
B) Oktavian Avgust
C) Trayan
D) Kaligula
8. Rimda imperatorni armiya saylaydigan tartib o'rnatilgan sanani aniqlang.
A) III asrda
B) I asrda
C) IV asrda
D) II asrda
9. Rimliklar madaniy taraqqiyotning ancha quyi pog'onasida turuvchi xalqlarni qanday nomlashgan edi?
A) «kolonlar»
B) «periyeklar»
C) «varvarlar»
D) «ilotlar»
10. Rim imperiyasini qullar va kolonlar qo'zg'oloni qamrab olgan sanani aniqlang.

Shuhratbek.uz

A) IV-V asrlar
B) III-IV asrlar
C) I-II asrlar
D) II-III asrlar
11. Rimga «varvarlar»ning imperiyaga hujumlari qancha vaqt davom etgan?
A) 120 yildan ko'p
B) 110 yildan ko'p
C) 100 yildan ko'p
D) 150 yildan ko'p
12. Qachon Alarix boshchiligidagi gotlar Rimni bosib olganlar?
A) 476-yil
B) 452-yil
C) 455-yil
D) 410-yil
13. Alarix boshchiligidagi gotlarga Rim darvozalarini ochib bergan tabaqani aniqlang.
A) savdogarlar
B) jangchilar
C) qullar
D) dehqonlar
14. Qadimgi qaysi shaharni «boqiy shahar» deya tariflashar edi?
A) Vizantiya
B) Konstantinapol
C) Afina
D) Rim
15. Tarixchi qaysi davlatning qulashi haqida «Butun Yer yuzining jahon shamchirog'i ham so'ndi» deb yozgan edi?
A) Rim imperiyasi
B) Eron davlati
C) Parfiya davlati
D) Karfagen davlati
16. Attila boshchiligidagi xunnlar qachon Italiyaga bostirib kirgan edilar?
A) 455-yil
B) 476-yil
C) 452-yil
D) 410-yil
17. Milodiy 455-yilda Rimga hujum qilgan qabilani aniqlang.
A) daklar
B) xunnlar
C) gotlar
D) vandallar
18. Qachon Rimning so'ngi imperatori Romul saroydan haydab yuborilgan edi?
A) 410-yil
B) 476-yil
C) 455-yil
D) 452-yil
19. G'arbiy Rim imperiyasi qulagan sanani aniqlang.
A) 410-yil B) 452-yil C) 455-yil D) 476-yil
20. Qaysi sanadan O'rta asrlar tarixi boshlanganligini aniqlang.
A) 476-yil
B) 480-yil
C) 486-yil
D) 455-yil

Shuhratbek.uz

## 52-53-Qadimgi Rim madaniyati (24)

### Testlar

1. Qadimgi Rimda imperator poytaxt aholisi uchun qurdirgan hammomlar qanday nomlangan?
A) amfora
B) agora
C) term
D) akveduk
2. «Term» atamasining ma'nosini aniqlang.
A) «hammom» ma'nosini
B) «katta suv maydoni» ma'nosini
C) «suv» ma'nosini
D) «issiq» ma'nosini
3. Rimda badavlat xonadon farzandlari necha yoshdan maktabga qatnar edilar?
A) 7 yoshdan
B) 8 yoshdan
C) 5 yoshdan
D) 6 yoshdan
4. Rim maktablarida yozuvni o'rganayotgan bolalar yozadigan metall ruchka qanday atalgan?
A) pergament
B) amulet
C) term
D) stil
5. Rimda o'rta miaktablar qanday atalganini aniqlang.
A) fakultet
B) grammatika
C) ritorika
D) shkolyar
6. Qadimgi Rim maktablarida qaysi tilni o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan?
A) yunon tilini
B) lotin tilini
C) etrusk tilini
D) rim tilini
7. Rimda siyosiy arbob bo'lishni istagan har bir kishi qaysi fanni o'zlashtirgan?
A) astronomiya va tarix
B) notiqlik va ritorika
C) matematika va geometriya
D) adabiyot va she'r yozish
8. Rim shahri eng yirik va aholisi ko'p shahar bo'lgan sanani aniqlang.
A) II asrda
B) IV asrda
C) I asrda
D) III asrda
9. Rimda yuqori qismidan anhorlar o'tkazilgan ko'priklar qanday atalgan?
A) altar
B) amfora
C) amulet
D) akveduk
10. Rimliklar ixtiro qilgan qurilish materialini aniqlang.
A) g'isht

Shuhratbek.uz

B) sement
C) ohak
D) beton
11. Rimda harbiy kemalar jangi o'tkaziladigan eng katta inshootni aniqlang.
A) Diokletian hammomi
B) Karakalla terimi
C) Panteon binosi
D) Kolizey amfiteatri
12. Rimdagi «barcha xudolar ibodatxonasi» ni aniqlang.
A) Karakalla ibodatxonasi
B) Vesta ibodatxonasi
C) Panteon ibodatxonasi
D) Parfenon ibodatxonasi
13. Tit, Liviy, Tatsit, Plutarxlar qaysi davlat tarixchilari bo'lgan?
A) Rim tarixchilari
B) Yunoniston tarixchilari
C) Karfagen tarixchilari
D) Vizantiya tarixchilari
14. Rivoyatlarda «Xudoning o'g'li» Iso qayerda tug'ilgan deb tarqalgan edi?
A) Nazaret shahrida
B) Massiliya shahrida
C) Brundiziy shahrida
D) Kirena shahrida
15. «Xudoning o'g'li» Iso 30 yoshida Iordan daryosida kim tomonidan cho'qintirilgan edi?
A) Pontiy Pilat
B) Iosif
C) Ioann
D) Mariya
16. «Xudoning o'g'li» Isoni o'lim jazosiga mahkum etishni tasdiqlagan Rim noibini aniqlang.
A) Pontiy Pilat
B) Septimiy Sever
C) Sest Pompey
D) Mark Lukum
17. «Xudoning o'g'li» Isoni qayerda xochga tortgan edilar?
A) Iordan daryosi bo'yida
B) Vezuviy tog'ida
C) Golgof tog'ida
D) Panteon ibodatxonasida
18. Iso Masih haqidagi rivoyatlar qanday nom olgan?
A) Bibliya
B) Yevangaliya
C) Yahudiy matnlari
D) Iliada
19. Yevangaliya so'zi yunonchadan tarjima qilinganda qanday ma'noni bildiradi?
A) «muqaddas»
B) «mujda beruvchi»
C) «xushxabar»
D) «izdoshlar»
20. Xristianlik jamoalariga kim boshchilik qilishini aniqlang.
A) apostollar
B) yepiskoplar
C) hamma javoblar to'g'ri

Shuhratbek.uz

D) havoriylar
21. Iso payg’ambar ta’limoti izdoshlari qanday nom bilan atalgan?
A) yepiskoplar
B) hovariylar
C) apostollar
D) xristianlar
22. Xristianlik dini vujudga kelgan sanani aniqlang.
A) milodiy II asr
B) milodiy III asr
C) mil.avv.I asr
D) milodiy I asr
23. Milodiy 313-yilda xristianlik boshqa dinlar bilan teng bir din deb e’lon qilingan farmon chiqargan imperatorni aniqlang.
A) Oktavian Avgust
B) Konstantin
C) Avreliy
D) Feodosiy
24. Rimda qaysi imperator xristianlik ramzini o’z askarlari qalqonlariga chizishga buyurgan va g’alaba qozongan?
A) Septemiy Sever
B) Pontiy Pilat
C) Konstantin
D) Neron

Shuhratbek.uz

## 54-Ma'naviyat manbalarida-Lug'at-Tarixiy sanalar (15)

### Testlar

1. «Diadohlar» kimligini aniqlang.
A) Makedoniyalik Aleksandr vafotidan so'ng hokimiyatni egallab olgan harbiy sarkardalar
B) birin-ketin hukmronlikni egallab oladigan podsholar urug'i
C) Gomer «Iliada» dostonida yunonlarni shunday atagan
D) oriylar
2. Hukmdorning cheklanmagan hokimiyati joriy qilingan davlat qanday nomlanadi?
A) koloniya
B) imperiya
C) megapolis
D) provinsiya
3. Nekropol nimaligini aniqlang.
A) qabriston; maqbara
B) yig'ilish joyi
C) mahobatli tosh inshoot
D) ibodatxona
4. Tiran so'zining ma'nosini aniqlang.
A) podshoning vorisi bo'ladigan shaxs
B) harbiy boshliq
C) shahar-davlat
D) mutlaq hokimiyatga ega bo'gan hukmdor
5. Asrlar, davrlar, vaqt o'lchovi haqidagi fan qanday nomlanadi?
A) arxeologiya
B) ritorika
C) lingvistika
D) xronologiya
6. Parfiya davlati gullab-yashnagan vaqtni aniqlang.
A) mil.avv.II asr
B) milodiy I asr
C) milodiy II asr
D) mil.avv.I asr
7. Qizil bo'yoqda yovvoyi ho'kizlarni ovlash tasvirini qadimgi rassomlar qayerda chizib qoldirganliklarini aniqlang.
A) Zarautkamar darasida
B) hamma javoblar to'g'ri
C) Ko'hitog' qoyalarida
D) Oltin Olov darasida
8. Jamiyatning rivojlanishini aniqlaydigan va unda odamlarning rolini belgilovchi ta'limot – bu…?
A) mafkura
B) kalom
C) shariat
D) fiqx
9. «Amfora» nimaligini aniqlang.
A) baland ko'prik
B) tomsiz katta inshoot
C) balo-ofatlardan himoya qiluvchi tumor
D) qo'shaloq dastali katta ko'za
10. «Amulet» nimaligini aniqlang.
A) tomsiz katta inshoot

Shuhratbek.uz

B) baland ko'prik
C) yovuz ruhlar va balo-ofatlardan himoya qiluvchi tumor
D) qo'shaloq dastali katta ko'za
11. Oltin mo'ynani izlab «Argo» degan ko'p eshkakli kemada daryoga chiqqan Ellada qahramonlari qanday atalgan?
A) danaylar
B) argonavtlar
C) ariylar
D) ellinlar
12. «Ariylar» deyilgan qadimgi xalqlarning nomi tarjimasi qanday ma'noni bildiradi?
A) «erkinlar»
B) erkinlar,sodiqlar»
C) «jasurlar»
D) «sodiqlar»
13. Davlatga oid hujjatlar saqlanadigan joy qanday nomlanadi?
A) kutubxona
B) notarius
C) arxiv
D) muzey
14. Binolar va boshqa inshootlarni barpo etish san'ati qanday nomlanadi?
A) arxitektura
B) ritorika
C) geografiya
D) geometriya
15. Gomer «Iliada» dostonida yunonlarni qanday nom bilan atagan edi?
A) ellinlar
B) diadohlar
C) ariylar
D) danaylar

Shuhratbek.uz

# JAVOBLAR

## 1-Qadimgi tarix - sivilizatsiyaning boshlanishi (42)

### Savollar va javobi

1. (6/k)Qadimgi bitiklarni o’rganuvchi fan qanday ataladi?
☑ Epigrafika
2. (6/k) Numizmatika qanday fan?
☑ tangalarni tadqiq qiluvchi fan
3. (6/k) Eng qadimgi shaharlar va davlatlar tashkil topish davrini olimlar qanday ataydilar?
☑ Sivilizatsiya
4. (6/k) Dastlabki sivilizatsiyalar tarixi qayerdan boshlangan edi?
☑ Qadimgi Sharqda
5. (6/k) Qadimi dunyo tarixi qaysi davrni o’z ichiga oladi?
☑ Yer yuzida odam paydo bo’lganidan to milodiy 476-yilgacha bo’lgan vaqtni
6. (6/k) «Piramidalar matnlari», «Marhumlar kitobi» matnlarida qaysi xalq tarixi haqida yozilgan?
☑ misr xalqi
7. (6/k)«Bibliya» matnlarida qaysi xalq tarixi xaqida yozilgan?
☑ yahudiy xalqi
8. (6/k) «Rigveda» matnlarida qaysi xalq tarixi haqida yozilgan?
☑ hindlar
9. «Avesto» matnlarida qaysi xalq tarixi haqida yozilgan?
☑ O’rta Osiyo xalqi
10. Qadim o’tgan zamonlarda odamlar yashagan manzilgohlarda qazishma ishlarini amalga oshiruvchi olimlar qanday ataladi?
☑ arxeologlar
11. Qadimgi odamlarning qoldiqlari(skelet va boshchanoq)ni tekshiruvchi olimlar qanday ataladi?
☑ anropologlar
12. Etnograflar nimani o’rganadilar?
☑ qadimgi xalqlarning ko’pgina udumlarini, xo’jalik va madaniyat an’analarini o’rganadilar.
13. Qadimgi tillarni tadqiq qiluvchchi olimlar qanday ataladi?
☑ lingvistlar
14. O’rta Osiyo tarixi bo’yicha eng qadimgi manba qaysi manba hisoblanadi?
☑ zardushtiylikning «Avesto» kitobi
15. «Avesto»da yurtimizdagi qaysi tarixiy viloyatlarning aholisi madaniyati to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan?
☑ hamma javoblar to’g’ri
16. Behistun qoyalari qayerda joylashgan?
☑ Erondagi Kirmonshoh shahri yaqinida
17. Behistun yozuvlari kimning buyrug’i bilan yozilgan?
☑ Doro I ning
18. Behistun yozuvlari qaysi tilda yozilgan edi?
☑ qadimgi fors, elam, bobil tilida
19. To’qqiz kitobdan iborat «Tarix» asarini kim yozgan?
☑ Gerodot
20. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodot qachon yashagan?
☑ mil.avv.V asrda
21. Yunon tarixchisi va geografi Strabon qachon yashagan va qaysi asarni yozgan?

☑ mil.avv.I asr oxiri «Geografiya»
22. «Tarixiy yilnomalar» asarini muallifi kim va u qachon yozilgan?
☑ Sim Szyang, mil.avv.II asr oxiri – I asr boshlari
23. Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf qachon yashagan va qaysi asarni yozgan?
☑ milodiy I asr «Buyuk Aleksandr tarixi»
24. «Aleksandrning harbiy yurishlari» nomli asar muallifi kim va qachon yashagan?
☑ Arrian, milodiy II asr
25. Yunonlar qachondan yurtimizning aholisi, viloyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lganlar?
☑ mil.avv.VI-V asrlardan
26. O'zbekistonning qadimgi aholisi bilan Qadimgi Sharq elatlari o'rtasida keng madaniy aloqalar qachon boshlangan?
☑ bundan 5-4 ming yillar avval
27. Ibtidoiy jamoa tuzumi – qanday davr?
☑ hamma javoblar to'g'ri
28. Ibtidoiy to'da – bu...
☑ turmush va mehnat umumiyligida birlashgan eng qadimgi odamlar jamoasi
29. Insoniyat rivojidagi birinchi bosqich qanday nomlanadi?
☑ Ibtidoiy to'da
30. Insoniyat tarixida urug' jamoalari ona tevaragida jipslashgan davr qanday ataladi?
☑ Matriarxat
31. Matriarxat – davri haqida noto'g'ri tarifni aniqlang?
☑ urug' va oila boshlig'i erkak kishi bo'lgan davr
32. Patriarxat – davri haqida noto'g'ri tarifni aniqlang.
☑ to'g'ri javob yo'q
33. Urug'chilik tuzumi qachon nihoyasiga yetgan?
☑ patriarxat davri tamom bo'lishi bilan
34. (6/1§)Arxeologlar nima uchun insoniyat tarixi ibtidosini «tosh davri» deb atashadi?
☑ dastlabki mehnat qurollari asosan toshdan yasalgani uchun
35. Paleolit atamasining ma'nosi nima?
☑ qadimgi tosh davri
36. Mezolit atamasining ma'nosi nima?
☑ o'rta tosh davri
37. Yangi tosh davri qanday ataladi?
☑ neolit
38. Eneolit atamasining ma'nosi nima?
☑ mis-tosh davri
39. Odamzod ajdodlarining qadimiy yodgorliklari topilgan Sharqiy Afrikadagi Olduvay darasi(Tanzaniya) qaysi yillarga oid?
☑ mil.avv.3-2 mln.yilliklar
40. Ilk paleolit davri qaysi ming yilliklarni o'z ichiga oladi?
☑ mil.avv.1 mln– 100 ming yilliklar
41. O'rta paleolit davri qaysi mingyilliklar bilan belgilanadi?
☑ mil.avv.100-40 ming yilliklar
42. So'ngi paleolit davri qaysi mingyilliklar bilan belgilangan?
☑ mil.avv.40-12 ming yilliklar

## 2-Eng qadimgi odamlar rivojining ilk bosqichlari (19)

### Savollar va javobi

1. Teshiktosh g'oridan topilgan bola jasadi atrofiga arxar shoxlari qadab chiqilgan.Bu nima bilan bog'liq bo'lgan?

Shuhratbek.uz

☑ dastlabki diniy e'tiqodlar bilan
2. Qadimgi insonning fikrlash qobiliyati va tafakkurini o'zgarib borishiga nima sabab bo'lgan?
☑ mehnat faoliyati va tevarak olam haqida to'plangan bilimlar
3. Odamni o'rab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga ishonish fanda qanday ataladi?
☑ animizm
4. Eng qadimgi odamlarning buyumlar omad keltirishiga yoki balo-qazoni bartaraf etishiga e'tiqod qilishi fanda qanday nomlanadi?
☑ fetishizm
5. Eng qadimgi odamlarning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq qoya rasmlarining dastlabkilari qaysi davrga oid bo'lgan?
☑ so'nggi paleolit
6. Qoyatosh rasmlaridan eng qadimiylarini aniqlang?
☑ Ispaniyadagi Altamir g'ori, Fransiyadagi Lasko g'ori, Boshqirdostondagi Kapova g'ori
7. Qaysi omil eng qadimgi tasviriy san'at rivojlanishi uchun asos bo'lgan?
☑ odamning o'zini qurshab turgan tevarak dunyoni tushunishga intilishi
8. Avstrolopitek odam suyagi qayerdan topilgan?
☑ Janubiy Afrikadan
9. Zinjantrop odam suyagi qayerdan topib tekshirilgan?
☑ Sharqiy Afrikadan
10. Indoneziyaning Yava orolidan eng qadimgi davrda yashagan qaysi odam suyagi topilgan?
☑ pitekantrop
11. Xitoy hududidan eng qadimgi davrda yashagan qaysi odam suyaklari topib tekshirilgan?
☑ sinantrop
12. Neandertal odam suyagi qayerdan topilgan?
☑ Germaniya
13. Hozirgi qiyofadagi odam-kromanyon suyaklari dastlab qayerdan topilgan?
☑ Fransiya
14. Buyuk muzlash davri qachon boshlangan?
☑ ilk paleolitning so'nggi davrida
15. O'rta Osiyoda toshdan yasalgan qadimiy mehnat qurollari qaysi manzilgohdan topilgan?
☑ Farg'ona vodiysi Selung'ur manzilgohi va Toshkent viloyati Ko'lbuloq manzilgohi
16. Uchi bir tomonga qaratib o'tkirlangan qo'pol tosh qurollar arxeologiya fanida qanday nomlangan?
☑ chopper
17. Eng qadimgi kishilarning qaysi mashg'ulotlari o'zlashtiruvchi xo'jalik deb ataladi?
☑ termachilik va ovchilik
18. Qadimgi tosh asri madaniyatining mashhur yodgorligi bo'lgan Teshiktosh g'ori qachon va kim tomonidan topilgan?

## 3-Urug'chilik jamiyati (25)

### Savollar va javobi

1. Qaysi davrda toshga ishlov berish texnikasi va mehnat qurollari yasash usullari o'zgargan?
☑ so'nggi paleolit
2. Kromanyon odam qaysi davrda yashagan?
☑ so'nggi paleolit
3. O'zbekistonda so'nggi paleolit davriga oid odam manzilgohlari topilgan hududlarni aniqlang.
☑ hamma javoblar to'g'ri
4. Qachon odamlar takomillashgan kesuvchi, arralovchi, parmalovchi mehnat qurollari yasaydigan bo'lishgan?
☑ 25-30 ming yil avval

Shuhratbek.uz

5. Insonlar qachondan taqinchoqlar yasay boshlaganlar?
☑ so'nggi paleolit davridan
6. Eng qadimgi odamlar qachondan urug’ jamoalariga ajralib chiqishgan?
☑ so'nggi paleolit davridan
7. Turar joylar qurilishi qaysi davrda ixtiro qilingan?
☑ so'nggi paleolit davri
8. Inson qaysi davrda sun’iy olov hosil qilishni o’rganib olgan edi?
☑ so'nggi paleolit davri
9. Mezolit davri qaysi -mingyilliklarni o’z ichiga oladi?
☑ mil.avv.12-7 -mingyilliklar
10. Muzlik davri qachon poyoniga yetgan?
☑ mezolit davri boshlanishi bilan
11. Inson qaysi davrda o’q-yoy yasashni o’rganib olgan?
☑ mezolit davri
12. Inson qaysi davrda hayvonlarni qo’lga o’rgata boshlagan?
☑ mezolit davri
13. Mezolit davrida Old Osiyoda xo’jalikning qaysi tarmog’i vujudga kelgan?
☑ ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik
14. Qachondan urug’ jamoalari nafaqat Osiyo va Afrikada, balki Yevropa shimolida ham keng joylasha boshladilar?
☑ mezolit davridan
15. Mezolit davriga oid manzilgohlar O’zbekistonning qaysi hududlarida ko’plab uchraydi?
☑ hamma javoblar to’g’ri
16. Mezolit davriga oid manzilgohlarning to'liq qatorini aniqlang.
☑ Obishir, Qo'shilish va Machay
17. Insonlar qachondan ishlab chiqaruvchi xo’jalikka o’tgan?
☑ neolit davridan
18. O’rta Osiyoda neolit davri qaysi -mingyilliklar bilan davrlashtiriladi?
☑ mil.avv.6-4 -mingyilliklar
19. Insonlar sopol idishlar yasashni qaysi davrda kashf etishgan edi?
☑ neolit
20. Odam qaysi davrda kichik mehnat qurollari-mikrolitlar yasashni o’rgandilar?
☑ neolit va mezolit
21. Insonlar qaysi davrda toshga ishlov berishning silliqlash, sirlash va teshikchalar parmalashni qo’llay boshladilar?
☑ neolit
22. Qaysi davrdan qabilalar o’troq turmush tarziga o’tib, doimiy turar joylar qura boshlaganlar?
☑ neolit
23. Qaysi davrdan insonlar paxsa imoratlar qurishni boshlaganlar?
☑ neolit
24. Kulolchilik va to’quvchilik hunarmandchiligi qaysi davrda ixtiro qilingan?
☑ neolit
25. O’rta Osiyoning janubiy viloyatlarida aholi qachondan ziroatchilikka o’tganlar?
☑ mil.avv.6-5-mingyilliklar boshlarida

## 4-Eneolit va bronza asri ziroatchilari (23)

### Savollar va javobi

1. Qaysi davrda insonlar birinchi metall-misdan foydalanishga o’tganlar?
☑ neolit davri oxirida
2. Eneolit davri qaysi mingyillikga to’g’ri keladi?

Shuhratbek.uz

☑ mil.avv.4-3 mingyilliklar
3. Qadimgi Sharqda qachon ilk shaharlar va davlatlar vujudga kela boshlagan?
☑ mil.avv.4-mingyillikda
4. O’rta Osiyoda sug’orma dehqonchilik qachon vujudga keldi?
☑ mil.avv.4-mingyillikda
5. O’rta Osiyoda qachon xom g’ishtdan ko’p xonali uylar qurila boshlangan?
☑ mil.avv.4-mingyillikda
6. O’rta Osiyoda qachon kulolchilik humdonlaridan foydalanishga o’tilgan?
☑ mil.avv.4-mingyillikda
7. O’rta Osiyoda qachondan sopol idishlar hayvonlar, qushlar va o’simliksimon naqshlar bilan bezatiladigan bo’ldi?
☑ mil.avv.4-mingyillikda
8. Bronza qachondan boshlab mehnat–qurollari va zeb-ziynat tayyorlashda ishlatiluvchi asosiy materialga aylangan?
☑ mil.avv.3-mingyillik o’rtalarida
9. Qaysi davrda odamlar termachilik va ovchilikdan dehqonchilik va chorvachilikka o’tdilar?
☑ bronza
10. Patriarxat davri qachon boshlangan?
☑ mil.avv.3-mingyillikda
11. Patriarxal oila - bu...
☑ ota tomonidan qarindoshlarning bir necha avlodlaridan tashkil topgan oila
12. Ilonlar tasviri tushirilgan tosh tumor qaysi mingyillikka oidligini aniqlang.
☑ mil.avv.2-mingyillik
13. Bronza davriga oid Zamonbobo manzilgohi qayerdan topilgan?
☑ Buxoro viloyati Qorako’l tumani
14. Chorvadorlar va dehqonlarning qadimiy manzilgohi Zamonbobo qaysi mingyillikka oidligini aniqlang.
☑ mil.avv.2-mingyillik
15. Qadimgi ziroatchilar manzilgohi Sopollitepa qayerdan topilgan?
☑ Surxondaryo viloyati Sherobod tumani
16. Qaysi manzilgohdan yirik-yirik xumlarda saqlangan bug’doy va arpa doni topilgan?
☑ Sopollitepa manzilidan
17. O’zbekiston janubidagi bronza asri dehqonlari manzilgohi Sopollitepa qaysi mingyillikka oid?
☑ mil.avv.2-mingyillik
18. Jarqo’ton manzilgohi qachon vujudga kelgan?
☑ uch yarim ming yil muqaddam
19. Jarqo’ton manzilgohi qayerda vujudga kelgan?
☑ Surxondaryo viloyati Sherobod tumani
20. Qaysi manzilgoh ikki qismdan: qasr va jamoa a’zolari, hunarmandlar va savdogarlarning arkni qurshab turgan uylaridan iborat edi?
☑ Jarqo’ton
21. Qaysi manzilgoh qurilishida shaharning ilk alomatlari mavjud bo’lgan?
☑ Jarqo’ton
22. Odamlar qaysi davrda kulolchilik charxi va g’ildirakni kashf etganlar?
☑ bronza
23. Qaysi manzilgohda O’zbekiston hududidagi ilk ibodatxona qoldiqlari bo’lgan?
☑ Jarqo’ton

## 5-Temir asriga o'tish davrida O'rta Osiyoning rivojlanishi (18)

### Savollar va javobi

Shuhratbek.uz

1. Insonlarda temirdan foydalanish imkoniyati qachon paydo bo’lgan?
☑ mil.avv.1--mingyillik boshlarida
2. Temir metalldan birinchi bo’lib qaysi xalq foydalana boshlagan?
☑ xettlar
3. Kichik Osiyoda xettlar temir metaldan qachon foydalana boshlaganlar?
☑ mil.avv.XIV-XIII asrlardan
4. Insonlar temirdan dastlab nima yasashda foydalanganlar?
☑ zeb-ziynat buyumlari
5. Temirdan yasalgan bezaklar qaysi yodgorlikdan topilganini aniqlang. -
☑ Kavkazdagi Maykop qo’rg’oni va Misr fir’avni Tutanxamon maqbarasi
6. O’rta Osiyodan topilgan eng qadimgi temirdan yasalgan buyumlar qaysi asrga oid bo’lgan?
☑ mil.avv.IX-VIII asrlar va VII-VI asrlar
7. Qaysi davrda urug’ jamoasi o’rnini hududiy qo’shnichilik jamoasi egallay boshlagan?
☑ temir davrida
8. Mil.avv.1-mingyillikda O’rta Osiyoda axoli qaysi guruxlarga ajratilgan?
☑ kohin, jangchi,dehqon,hunarmand
9. Qaysi davrdan jamiyat harbiy demokratiya qoidalariga asosan yashay boshlagan?
☑ temir davridan
10. Harbiy-demokratiya qanday boshqaruv hisoblanadi?
☑ ilk davlatchilikka o’tish davridagi qabilaga saylab qo’yiladigan harbiy sardorlar boshchilik qilgan boshqaruv
11. «Avesto» ga ko’ra katta patriarxal oila qanday atalgan?
☑ nmana
12. «Avesto» ga ko’ra urug’ jamoasi qanday atalgan?
☑ vis
13. «Avesto» ga ko’ra hududiy qo’shnichilik jamoasi qanday nomlangan?
☑ varzana
14. «Avesto» ga ko’ra «zantu» nima?
☑ qabila
15. «Avesto» ga ko’ra «dahyu» nima?
☑ qabilalar ittifoqi
16. «Avesto» ga ko’ra jamiyat qanday tizimda idora etilgani to’g’ri ketma-ketlikda berilgan javobni aniqlang.1.xalq yig’ilishi 2.oqsoqollar kengashi 3.qabilalar sardori 4.alohida tumanlar hukmdorlar 5.viloyatlarning hukmdorlari
☑ 2,1,4,5
17. O’rta Osiyoda ilk davlat birlashmalari qachon vujudga kelgan?
☑ mil.avv.IX-VIII asrlarda
18. Ijtmioiy tuzum taraqqiyotini to’g’ri kema-ketligini aniqlang.1.davlat 2.urug’ jamoasi 3.qabila 4.hududiy qo’shnichilik jamoasi 5.urug’ 6.qabilalar ittifoqi
☑ 5,2,4,3,6,1

## 6-Nil vodiysi va uning aholisi (15)

### Savollar va javobi

1. Qaysi daryoning mavjudligi Afrikaning shimoliy sharqida sivilizatsiya vujudga kelishiga zamin yaratgan?
☑ Nil daryosi
2. Nil daryosining O’rtayer dengiziga quyilishi vohasini qaysi xalq «delta» deb atagan?
☑ yunonlar
3. Nil vodiysidagi "qora tuproqli" davlat qanday atalgan?
☑ Misr

Shuhratbek.uz

4. Odamlar Nil daryosi qirg’oqlarini o’zlashtirishni qachon boshladilar?
☑ mil.av.4-mingyillik boshlarida
5. Misrliklar qaysi faslda dalalarga urug’ ekishar edi?
☑ kuzda
6. Qadimgi qaysi davlat hunarmandlarining 30 dan ziyod kasb-korlari bo’lgan?
☑ Misr
7. Qadimda oddiy misrliklarning uylari nimadan qurilgan?
☑ loy suvalgan papirus poyalaridan
8. Qadimgi Misrda kimlarning uylari somon qo’shib qorilgan loydan va oftobda quritilgan xom g’ishtdan yasalgan?
☑ zodagonlarning
9. Qadimgi Misrda fir’anvlar saroylari va ibodatxonalar nimadan qurilgan?
☑ toshdan
10. Qadimgi Misrda dastlabki kichik davlatlar qanday atalgan?
☑ nom
11. Yuqori Misr podshosi Menes qachon Quyi Misrni bosib olib birlashgan Misr davlatiga asos solgan?
☑ mil.av.3000-yil
12. «Fir’avn» atamasining ma’nosi nima?
☑ «ulug’ xonadon»
13. Yagona va birlashgan Misrning poytaxti qaysi shahar bo’lgan?
☑ Memfis
14. Olimlar Misr tarixini qaysi davrlarga ajratishgan?
☑ hamma javoblar to’g’ri
15. O’rta podsholik hukmronligi davrida Misr davlatining poytaxti qaysi shaxar bo’lgan?
☑ Fiva

## 7-Misr va qo'shni xalqlar (23)

### Savollar va javobi

1. Qadimgi Misr davlati janubda qaysi davlat bilan chegaradosh bo’lgan?
☑ Nubiya
2. Misrliklar Nubiyaga ayriboshlash uchun qanday maxsulot olib borishgan?
☑ oltin, smola,fil suyagi, nodir yog’och
3. Misr g’arbida qaysi davlat joylashgan edi?
☑ Liviya
4. Misrliklar Arabiston sahrosi orqali qayerga borishgan?
☑ Sinay yarimoroliga
5. Qadimda Sinay yarimorolidan qanday metall qazib olinardi?
☑ mis
6. Qadimda Sinay yarimorolidan shimolda qaysi davlat joylashgan edi?
☑ Falastin
7. Misrga qo’shni bo’lgan qaysi davlat mis va temir rudasiga boy edi?
☑ Suriya va Falastin
8. Misrliklar Falastin va Suriyadan qanday mahsulotlar olib kelishgan?
☑ hunarmandlar yasagan buyumlar va nodir qimmatbaho toshlar
9. Misr davlati qaysi davrda Sinay yarimorolini bosib olgan?
☑ o’rta podsholik davrida
10. Misrda O’rta podsholik fir’avnlari qaysi hududni Misrga qo’shib olishgan edi?
☑ SHimoliy Nubiya, Janubiy Falastin
11. Ko’chmanchi giksoslar qabilalari qachon Misrga hujum qildilar?

Shuhratbek.uz

☑ mil.avv.XVIII asr oxirida
12. Misrga hujum qilgan giksoslarning asosiy kuchi nima bo’lgan?
☑ yengil aravali qo’shin
13. Misrda qaysi shahar hukmdorlari giksoslarga itoat qilishmagan edi?
☑ Fiva shahri
14. Giksoslar istibdodidan xalos bo’lish uchun Misr «nom»lari hukmdorlari qaysi shahar atrofida birlashganlar?
☑ Fiva shahri
15. Giksoslarni Misrdan qaysi hukmdor haydab chiqargan?
☑ Yaxmos
16. Misrda fir’avn Yaxmos zamonidan qaysi davr boshlangan?
☑ Yangi podsholik davri
17. Misrda yangi podsholik davri fir’avnlari qaysi hududga hujum uyushtirganlar?
☑ Nubiya, Old Osiyo mamlakatlariga
18. Misrda Yangi podsholik davri fir’avnlari qaysi xududni Misrga qo’shib olishgan?
☑ Nubiyani
19. Misrda mil.avv.1500 yil qaysi fir’avn katta yurishlarni tashkillashtirgan edi?
☑ Tutmos II
20. Misrning qaysi fir’avni davrida Falastin bosib olingan?
☑ Tutmos III
21. Mil.avv.VII asrda Misr…?
☑ yagona davlatga birlashgan
22. Forslar qachon Misrga bostirib kirgan?
☑ mil.avv.VI asrda
23. Kir II ning o’g’li Kambiz qachon Misrni bosib olgan?
☑ mil.avv.525-yil

## 8-Qadimgi Misr dini (21)

### Savollar va javobi

1. Qadimgi qaysi davlatda xudolar hayvonlar siymosiga o’tib olib odamlar orasida yashaydi deb hisoblaganlar?
☑ Misr
2. Qadimgi Misr podsholigining poytaxti Memfisning o’z xudosi bo’lgan.Bu xudoni aniqlang.
☑ Ptax
3. Misrliklar e’tiqodicha qaysi xudo olamni yaratayotganida har bir narsaning nomini odamga o’rgatgan?
☑ Ptax
4. Misrda Ptax degan xudoning Yer yuzidagi qiyofasi qanday aytilgan?
☑ Apis
5. Misrda qaysi xudo peshanasi va belida oq qashqasi bo’lgan qora ho’kiz timsoldida tasavvur etilgan?
☑ Apis
6. Misrda Quyosh xudosi qanday aytilgan?
☑ Amon-Ra
7. Misrda quyosh xudosi qachondan fir’avnlarning bosh ilohi va homiysi hisoblangan?
☑ mil.avv.2-mingyillik
8. Misrda Amon-Ra xudosining ibodatxonasi qayerda bo’lgan?
☑ Geliopolda
9. Misrda fir’avnlar qaysi xudoning o’g’illari hisoblangan?
☑ Quyosh xudosi

Shuhratbek.uz

10. Misrda Nil xudosi – hayotning birlamchi manbai va posboni qaysi xudo bo'lgan?
☑ Xapi
11. Misrda Osiris qanday xudo bo'lgan?
☑ yerosti saltanati xudosi
12. Misrda qaysi xudo davlatning ilk podsholaridan biri bo'lib, o'z xalqini dehqonchilikka o'rgatgan?
☑ Osiris
13. Misrda Osiris xudosinini o'ldirgan uning birodarini aniqlang.
☑ Set
14. Misrda Osirisni mumiyolagan va qayta tiriltirgan uning xotini kim bo'lgan?
☑ Isida
15. Misr xudosi Osirisning ibodatxonasi qaysi shaxarda hozirgacha saqlanib qolgan?
☑ Abidos
16. Misrda Set qanday xudo bo'lgan?
☑ baxtsizlik, cho'l va bo'ron xudosi
17. Misrdagi musiqa, go'zallik va muhabbat xudosini aniqlang.
☑ Xatxor
18. Misrda Maat qanday xudo hisoblangan?
☑ haqiqat, adolat va odillik xudosi
19. Misrda Anubis qanday xudo bo'lgan?
☑ marhumlar, mumiyolanganlar xudosi va ko'milganlar rahnamosi
20. Misrdagi oy, donishmandlik va tabobat xudosini aniqlang.
☑ Tot
21. Misrda xudolar va odamlar o'rtasida kimlar vositachi bo'lishgan?
☑ kohinlar

## 9-Piramidalar va maqbaralar (14)

### Savollar va javobi

1. Piramida – nima?
☑ mahobatli tosh inshoot, fir'avnlar maqbarasi
2. Misrda piramidalar qaysi davrda barpo qilingan?
☑ Qadimgi va O'rta podsholik davrida
3. Misrda eng mashhur piramidalar qaysi shahar yaqinida bunyod etilgan?
☑ Memfis
4. Misrda eng mashhur piramidani aniqlang.
☑ hamma javoblar to'g'ri
5. Misrda eng katta(147 m) piramida qaysi bo'lgan va qachon qurilgan?
☑ mil.avv.2600-yil Xeops piramidasi
6. Misrda fir'avnlarning mumiyolangan jasadi solingan toshtobut qanday atalgan?
☑ sarkofag
7. Misrda piramidalarni qo'riqlovchi tanasi arslon va boshi odamnikisimon bo'lgan ulkan haykal qanday atalgan?
☑ sfinks
8. Misrdagi qaysi fir'avn maqbarasining boyliklari zamonamizgacha yetib kelgan?
☑ fir'avn Tutanxamon
9. Misrda marhumlar saltanatidagi hayot qaysi xudoning sudi natijalariga bog'liq bo'lgan?
☑ Osiris
10. Misrliklar inson jasadini nima uchun mumiyolashgan?
☑ Osiris qarshisida go'zal qiyofada qad rostlash uchun
11. Misrda inson jasadini mumiyolash necha kun davom etgan?

Shuhratbek.uz

☑ 70 kun
12. Misrda qaysi xudoning sharafiga uyushtirilgan bayramlarda jami aholi ishtirok qilgan?
☑ Bastet
13. Misrda mushuk ko’rinishidagi Bastet qanday iloha bo’lgan?
☑ go’zallik ilohasi
14. Misrda qaysi podsholik davriga kelib piramidalar qurilmay qo'ydi?
☑ Yangi podsholik

## 10-11-Qadimgi Misr madaniyati (14)

### Savollar va javobi

1. Misrda yozuvni nima deb atalganini aniqlang.
☑ hamma javoblar to’g’ri
2. Misrliklar yozuvini yunonlar qanday ataganlar?
☑ «iyeroglif»
3. «Ierogliflar» atamasi qanday ma’noni bildiradi?
☑ «toshga chekilgan muqaddas bitik»
4. Qadimgi misrliklar alifbosi nechta ieroglifdan iborat bo’lgan?
☑ 750 iyeroglifdan
5. Misr matnlarini o’qigan fransuz olimi kim edi?
☑ Fransua Shampolyon
6. Rozett bitigi orqali misr matnlarini o’qish qachon amalga oshirilgan?
☑ 1822-yilda
7. Bugungi kunda Rozett bitiktoshi qaysi muzeyda saqlanadi?
☑ Londondagi Britaniya muzeyida
8. Rozett bitiktoshi qaysi tillarda yozilgan edi?
☑ misr va yunon tillarida
9. Qadimda qaysi davlatda shaharlarda tabiblarga ta’lim beruvchi maxsus maktablar bo’lgan?
☑ Misrda
10. Misrda asosiy o’lchov birligi qanday atalgan?
☑ «tirsak»
11. Misrda 52,5 sm ga teng bo’lgan yagona o’lchov qanday atalgan?
☑ «podsho tirsagi»
12. Misrda vaqt qanday o’lchangan?
☑ suv soatlari yordamida
13. Misrda kimlarning asosiy vazifasi matnalarni yozish va o’qish bo’lgan?
☑ xattotlarning
14. Quyidagilardan Qadimgi Misrda yaratilmagan badia asarlani aniqlang.
☑ «To’fon rivoyati»

## 12-Mesopotamiya sivilizatsiyalari (36)

### Savollar va javobi

1. Qadimgi yunonlar qayerni Mesopotamiya deb nomlashgan?
☑ Dajla va Frot daryolari oralig’idagi vodiyni
2. Mesopotamiya atamasi qanday ma’noni bildiradi?
☑ Ikki daryo oralig’i
3. Mesopotamiyada vujudga kelgan-Yer yuzini butunlay suv bosishi to’g’risidagi rivoyatni aniqlang.

Shuhratbek.uz

☑ «To’fon rivoyati»
4. Mesopotamiya ahli nimani «hayot daraxti» deyishgan?
☑ hurmo daraxtini
5. Mesopotamiyada qachon shumerlar manzilgohlari vujudga kelgan?
☑ mil.avv.4-mingyillikda
6. Shumerlar Mesopotamiyaning qaysi qismini «shumer» deb ataganlar?
☑ janubiy qismini
7. Mesopotamiyaning qaysi qismida ko’chmanchi chorvadorlar – akkadlar o’rnashgan edi?
☑ shimoliy qismida
8. Akkadlar qachon butun Mesopotamiyani egallab oladilar?
☑ mil.avv.3-mingyillik oxirida
9. Mesopotamiya aholisining asosiy mashg’uloti qaysi soha edi?
☑ dehqonchilik
10. Mesopotamiya aholisi Kavkazorti va Eron o’lkalaridan donga ayriboshlab qanday mahsulotlar olib keltirishgan?
☑ hamma javoblar to’g’ri
11. Mesopotamiyaga Suriyadan qanday mahsulot keltirilgan?
☑ kedr yog’ochi
12. Mesopotamiyada savdoda nima pul sifatida ishlatilgan?
☑ kumush quymasi shaklidagi metall tangalar
13. Mesopotamiyada 550 grammga teng bo’lgan og’irlik o’lchovi qanday atalgan?
☑ mino
14. Shumerlar qachon mixxatni ixtio etishgan edi?
☑ mil.avv.4-mingyillikda
15. Mesopotamiyada Uruk, Umma, Lagash, Ur shaharlari qachon vujudga kelgan?
☑ mil.avv.4-mingyillik oxirida
16. Mesopotamiyada paydo bo’lgan shahar-davlatlarda xudo nomidan kimlar hukmdorlik qilardilar?
☑ kohinlar
17. Mesopotamiyaning qadimiy ibodatxonalari qanday atalgan?
☑ zikkurat
18. Mesopotamiyada Shamash qanday xudo hisoblangan?
☑ quyosh xudosi
19. Mesopotamiyada qaysi xudo oliy hakam hisoblangan, yomon ishlari uchun odamlarni sud qilgan?
☑ Shamash
20. Mesopotamiyada Oy xudosi qanday aytilgan?
☑ Sina
21. Mesopotamiyada Ea qanday xudo bo’lgan?
☑ suv xudosi
22. Mesopotamiyada Ishtar qanday xudo bo’lgan?
☑ urush va g’alaba ilohasi
23. Mil.avv.3-mingyillikda Shumer shaharlari orasida eng qudratlisi qaysi bo’lgan?
☑ Ur shahri
24. Mesopotamiyada katta-katta yer mulklari kimga tegishli bo’lgan?
☑ hukmdorlar va kohinlarga
25. Mesopotamiyada Lagash davlati qachon yuksalib Shumer va Akkadning ko’p shaharlarini o’ziga qo’shib olgan?
☑ mil.v.3-mingyillik o’rtalarida
26. Mesopotamiyaning qaysi shahar-davlatidagi ibodatxona xudolar va qahramonlar haykallari bilan bezatilgan?
☑ Lagash shahri

Shuhratbek.uz

27. Mesopotamiyaning sevimli qahramoni Gilgamesh qaysi shahar podshosi bo’lgan?
☑ Uruk shahri
28. Afsonalar qahramoni Gilgamesh do’st tutingan pahlavonni aniqlang.
☑ Enkidu
29. Sargon I qachon Akkadni o’z hokimiyati ostida birlashtirgan?
☑ mil.va.3-mingyillik o’rtalarida
30. Mesopotamiyada qaysi podsho savdo-sotiqni rivojlantirish uchun shaharlarda yagona bo’lgan uzunlik, maydon va og’irlik o’lchovini joriy etgan?
☑ Sargon I
31. Mesopotamiyada qaysi podsho jahon tarixida birinchi bo’lib 5400 nafar jangchidan iborat muntazam qo’shin tuzgan?
☑ Sargon I
32. Sargon I Mesopotamiyadan qaysi xududga boradigan dengiz savdo yo’llarini egallab olgan?
☑ hamma javoblar to’g’ri
33. O’z hukmronligini so’ngida Shumer-Akkad podshosi Sargon I qanday unvon olgan?
☑ «to’rt iqlim mamlakati podshosi»
34. Shumer-Akkad davlati qachon ko’chmanchi qabilalar zarbasidan parchalanib ketgan?
☑ mil.avv.2-mingyillikda
35. Tepasida ibodatxonasi bo’lgan zinapoyali yirik minora qanday atalgan?
☑ zikkurat
36. Qadimgi Mesopotamiyadagi zikkuratlar nimadan qurilgan edi?
☑ xom g'ishtdan

## 13-Bobil podsholigi (27)

### Savollar va javobi

1. Bobil podsholigi qachon Mesopotamiya janubidagi eng yirik davlatga aylangan?
☑ mil.avv.2-mingyillikda
2. «Bobil» so’zining ma’nosini aniqlang.
☑ «xudolar darvozasi»
3. Bobilning bosh ko’chasi qaysi darvoza bilan tugallangan?
☑ Ishtar darvozasi
4. Mil.avv.XVIII asrda qaysi podsho butun Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirgan?
☑ Xammurapi
5. Bobil podshosi Xammurapi qaysi yillarda hukmronlik qilgan?
☑ mil.avv.1792-1750-yillar
6. Xammurapi qonunlariga ko’ra shifokor amalga oshirgan operatsiyasi natijasida bemor bevaqt vafot etsa nima qilingan?
☑ shifokorning qo’llari kesilgan
7. Xammurapi qonunlariga ko’ra arxitektor qurgan uy to’satdan qulab biror kishini bosib qolsa qanday jazo belgilangan?
☑ arxitektor qatl qilingan
8. Xammurapi qonunlariga ko’ra qarzni vaqtida qaytarmagan kishiga qanday jozo belgilangan?
☑ oila a’zolarini qarz bergan kishiga uch yilga qullikka bergan
9. Xammurapi qonunlariga ko’ra ayblanuvchi jabrlanuvchinining ko’zlariga jarohat yetkazgan bo’lsa qanday jazo belgilangan?
☑ uning ko’zlariga jarohat yetkazilgan
10. Xammurapi qonunlariga ko’ra yong’in mahalida o’g’irlik ustida qo’lga tushgan kimsa qanday jazolangan?
☑ o’sha zahoti olovga tashlangan
11. Xammurapi qonunlariga ko’ra qulfbuzar o’g’ri qanday jazolangan?

Shuhratbek.uz

☑ o’sha yerning o’zida o’ldirilib ko’mib yuborilgan
12. Xammurapi qonunlarini nima uchun so’zsiz og’ishmasdan bajarish talab qilingan?
☑ xudolarning xohish-irodasi sifatida talqin qilinganligi uchun
13. Xammurapi vafotidan so’ng Bobil shahrini qaysi qabila bosib olgan?
☑ tog’lik kassitlar
14. Yangi Bobil podsholigi qachon vujudga kelgan?
☑ mil.avv.VII asrda
15. Yangi Bobil podsholigi qaysi podsho davrida o’z ravnaqi cho’qqisiga erishgan?
☑ Navuxodonosor II
16. Qaysi hukmdor Misrni Yangi Bobil podsholigiga qo’shib oladi, Iyerusalimni vayron qilib tashlaydi?
☑ Navuxodonosor II
17. Yangi Bobil podsholigining qaysi hukmdori turar joy binolari va mudofaa devorlari qurilishida pishgan g’isht ishlatish to’g’risida farmon bergan?
☑ Navuxodonosor II
18. Yangi Bobil podsholigida qaysi darvoza chiroyli va nafis bo’lgan, hayvonlar va qushlar tasviri tushirilgan niliy naqshinkor toshtaxtachalar bilan bezatilgan?
☑ Ishtar darvozasi
19. Qachon Yangi Bobil podsholigiga Eron qo’shinlari bostirib kirib bosib olishgan?
☑ mil.avv.539-yil
20. Forslarni Bobil podsholigidan qaysi hukmdor haydab chiqargan edi?
☑ Makedoniyalik Aleksandr
21. Makedoniyalik Aleksandr vafotidan so’ng Bobil qaysi davlat tarkibiga kirgan?
☑ Salavkiylar davlatiga
22. Jahondagi eng qadimiy yozuvlardan biri Shumer mixxati qachon vujudga kelgan?
☑ mil.avv.4 -mingyillik
23. Bobil podsholigida badavlat oila farzandlari ta’lim oluvchi maktablar qayerda tashkil qilinar edi?
☑ hukmdor saroylarida va ibodatxonlarda
24. Shumerliklar tomonidan quyosh yili necha kun qilib belgilang?
☑ 365 kun
25. Mesopotamiyada qachon turli-tuman dori-darmonlarni tayyorlash bo’yicha dasturilamal tuzilgan edi?
☑ mil.avv.3 -mingyillikda
26. Olam yaratilishi haqidagi eng qadimiy asotirlar qayerda paydo bo’lgan edi?
☑ Mesopotamiya
27. Shumerliklar tomonidan oy yili necha kun qilib belgilang?
☑ 354 kun

## 14-Old Osiyo davlatlari va ularning qo'shnilari (46)

### Savollar va javobi

1. Old Osiyo hududida qachondan ilk davlatlar vujudga kela boshlagan?
☑ mil.avv.2 -mingyillikda
2. Kichik Osiyo markazida xettlar qachon o’z davlatiga asos solganlar?
☑ mil.avv.XVIII asrda
3. Xett podsholigi hozirgi qaysi davlat hududida joylashgan edi?
☑ Turkiya
4. Xett podsholigining markazi qaysi shaxar bo’lgan?
☑ Xattusa
5. Xett podsholigida aholining asosiy mashg’uloti nima bo’lgan?

Shuhratbek.uz

☑ dehqonchilik va chorvachilik
6. Xett podsholigi qaysi hududlarni bosib olgan va talon- taroj qilgan edi?
☑ Suriya va Bobilni
7. «Taran»- qadimda qanday qurol bo'lgan?
☑ devorni buzishda qo'llaniladigan qurol
8. Hozirgi Suriya davlati hududida qadimda qaysi podsholik vujudga kelganligini aniqlang.
☑ Mitanni podsholigi
9. Qaysi davlat Xett davlatining xavfli raqibi bo'lgan?
☑ Mitanni podsholigi
10. Xettlar podsholigi qachon ikkinchi marta kuchaya boshlagan?
☑ mil.avv.XIV asr boshlarida
11. Xett podsholigi Ossuriya tahdidiga qarshi qaysi davlat bilan sulh tuzgan edi?
☑ Misr davlati
12. Xett podsholigini noma'lum xalqlar(«dengiz xalqlari») qachon bosib olganlar?
☑ mil.avv.XIII asr oxirida
13. Qadimda ossuriyaliklar qaysi hududda yashagan edilar?
☑ Dajla daryosi yuqori oqimidagi hududda
14. Ossuriya podsholigining dastlabki poytaxti qaysi shahar bo'lgan?
☑ Oshshur
15. Ossuriya podsholigi aholisining asosiy mashg'uloti nima bo'lgan?
☑ dehqonchilik va savdo-sotiq
16. Ossuriya podsholigi qachon vujudga kelgan?
☑ mil.avv.XX asrda
17. Ossuriya podsholigi qachon va qaysi podsho davrida o'z ravnaqining yuqori cho'qqisiga erishgan?
☑ mil.avv.XIII asrda Salmanasar davrida
18. Ossuriya podsholigi mil.avv.VIII-VII asrlarda qayerni bosib olgan?
☑ Bobil,Bibl, Tir, Sidon va Falastinning bir qismini
19. Qadimda qaysi shaharni «qonga botgan shahar» yoki «sherlar darasi» deya tariflashgan?
☑ Nineviya
20. Qaysi hukmdor davrida Nineviyada Old Osiyodagi eng yirik sopol taxtachalardan iborat bo'lgan kutubxona jamlangan edi?
☑ Oshshurbanapal
21. Ossuriya podsholigidan Bobil va Midiya davlatlari qachon ajralib chiqishgan?
☑ mil.avv.627-yilda
22. Qachon Bobil va Midiya davlatlari birlashib Oshshur va Nineviyani zabt etishgan?
☑ mil.avv.612-yilda
23. Ossuriya davlati qachon zavolga yuz tutib tarix sahnasidan ketgan?
☑ mil.avv.605-yil
24. Kavkazortida Van, Urmiya, Sevan ko'llari oralig'ida joylashgan davlatni aniqlang.
☑ Urartu
25. Urartu podsholigi qo'shinlari janglarda qanday taktikaga amal qilganlar?
☑ to'g'ridan-to'g'ri janglarga kirmaslik
26. Urartu podsholigi qaysi hukmdorlar davrida va qachon gullab-yashnagan edi?
☑ mil.avv.IX-VIII asrlarda Sardur I va Menua davrida
27. Urartu podsholigining poytaxti qaysi shaxar bo'lgan?
☑ Tushpa
28. Qachon Ossuriyaliklar qo'shini Urartu armiyasini tor-mor qilib tashlagan?
☑ mil.avv.704-yil
29. Ossuriyaliklar Urartu podsholigida vayron qilib tashlagan qal'a qaysi shahar bo'lganini aniqlang.
☑ Teyshebaini

Shuhratbek.uz

30. Ossuriya bosqinidan so’ng Urartu podsholigi qaysi davlatga tobe’ bo’lgan?
☑ ko'chmanchi skiflar va Midiya podsholigiga
31. Urartu podsholigi qachon zavolga yuz tutib tarix sahnasidan ketgan?
☑ mil.avv.590-yil
32. Qadimda O’rtayer dengizning sharqiy qirg’og’i bo’ylab hozirgi Livan va Suriyaning bir qismida joylashgan davlatni aniqlang.
☑ Finikiya
33. Finikiyada o’sadigan kedr yog’ochining smolasi qaysi davlatga keltirilar edi?
☑ Misrga
34. Finikiyaliklar savdoda qo’shnilariga qanday mahsulotlar sotardilar?
☑ yog’och, metall, gazlamalar
35. Qadimda Tir, Sidon, Ugarit kabi dengiz bo’yi shaharlari qayerda vujudga kelgan?
☑ O’rtayer dengizi sohilida
36. Finikiyaliklar qachon Kipr oroli va Kichik Osiyo sohillarida koloniyalarga asos solganlar?
☑ mil.avv.2 -mingyillikda
37. Mil.avv.X-IX asrlarda Finikiyada vujudga kelgan podsholikni aniqlang.
☑ Tir-Sidon podsholigi
38. Ossuriya davlati Tir-Sidon podsholigini qachon bosib olgan?
☑ mil.avv.VII asrda
39. Finikiyada qachon 22 undosh harfdan iborat bo’lgan alifbo yaratilgan?
☑ mil.avv.X asrda
40. Finikiyaliklarning undosh harflardan iborat bo’lgan alifbosiga qaysi xalq unli harflarni qo’shgan edi?
☑ yunonlar
41. Falastin hududiga qadimgi yahudiy qabilalari qachon ko’chib kelib joylashgan edilar?
☑ mil.avv.2 -mingyillik o’rtalarida
42. Falastin hududida Isroil podsholigi qachon vujudga kelgan?
☑ mil.avv.XI asrda
43. Isroil podsholigi qaysi xalq zarbasidan keyin parchalanib ketgan edi?
☑ ossuriya xalqi
44. Yahudiya podsholigi qachon Bobil podsholigi tomonidan bosib olingan?
☑ mil.avv.586-yil
45. «Bibliya» so’zi qanday ma’noni bildiradi?
☑ «kitob» ma’nosini
46. Qadimiy yahudiylarning afsonalari to’plangan kitoblar to’plami qanday nomlangan?
☑ «Bibliya»

## 15-Ahamoniylar davlati (29)

### Savollar va javobi

1. Eron hududida Fors podsholigi qachon vujudga kelgan?
☑ mil.avv.VI asrda
2. Fors podsholigiga asos solgan shohlar qaysi suloladan bo’lganlar?
☑ ahamoniylar
3. Fors podsholigiga kim asos solgan?
☑ Kir II
4. Eron hududida qadim zamonlarda qaysi xalqlar yashashar edi?
☑ kassiylar va elamiylar
5. Eron hududiga midiyaliklar va forslar qachon ko’chib kelib o’rnashganlar?
☑ mil.avv.IX asrda
6. Elam davlati qayerda vujudga kelgan edi?

Shuhratbek.uz

☑ Eronning g’arbiy qismida
7. Elam davlati qachon vujudga kelgan?
☑ mil.avv.3-mingyillikda
8. Elam davlatining poytaxti qaysi shaxar bo’lgan?
☑ Suza
9. Eron hududidagi qaysi davlatda jahondagi eng qadimiy yozuvlardan biri yaratilgan edi?
☑ Elamda
10. Kaspiy dengizdan janubi g’arbda joylashgan Midiyada qachon qabilalar ittifoqlari vujudga kelgan?
☑ mil.avv.IX asrda
11. Midiya davlati qachon va kimning hukmronligi davrida kuchaygan edi?
☑ mil.avv.VII asrda Kiaksar davrida
12. Midiya davlati mil.avv.612-605-yillarda qaysi davlat bilan ittifoq bo’lib Ossuriyani bosib olgan?
☑ Bobil davlati
13. Fors viloyati Eronning qaysi tomonida joylashgan edi?
☑ janubida
14. Kir II qachon forslarni o’z hokimiyati ostida birlashtirgan edi?
☑ mil.avv.558-yil
15. Kir II qachon Armaniston, Midiya va Bobilni zabt etgan?
☑ mil.avv.539-yil
16. Fors podshosi Kir II ning qaysi xalqlarga qarshi yurishi muvaffaqiyatsiz tugagan?
☑ saklar va massagetlarga
17. Qaysi Fors podshosi Misrni zabt etgan va Eron davlati hududini nihoyatda kengaytirgan?
☑ Kambiz
18. Fors podshosi Doro I qaysi yillarda hukmronlik qilgan?
☑ mil.avv.522-486-yillar
19. Doro I butun mamlakatda muomalaga kiritgan yagona oltin tanga qanday nomlangan?
☑ «doroyi»
20. Fors podsholigida qurilgan qaysi yo’l Persepoldan O’rtayer dengiziga qadar borgan edi?
☑ Shoh yo’li
21. Doro I saltanatni alohida harbiy o’lkalarga taqsimlab, bu birliklar qanday nomlangan?
☑ satraplik
22. Doro I yurish uyushtirgan skif qabilalari qayerda joylashgan edilar?
☑ Qora dengiz bo’yida
23. Doro I ning qaysi hududni bosib olishi yunon-fors urushlari boshlanib ketishiga sabab bo’lgan?
☑ Frakiyani va Kichik Osiyodagi yunon koloniyalarini
24. Fors podsholaridan kimning davrida Hindiston shimolidan O’rtayer dengiziga qadar yastangan ulkan imperiya barpo etilgan edi?
☑ Doro I
25. Ahamoniylar davlatidagi muhim savdo markazlari bo’lgan shaharlarni aniqlang?
☑ Suza, Ekbatana
26. Qaysi shaharda Doro I va Kserksning muazzam xonalar va yuz ustunli zali bo’lgan saroyining qoldiqlari saqlanib qolgan?
☑ Persepol
27. Fors shohlarining bitiklari saqlanib qolgan manbalarni aniqlang?
☑ hamma javoblar to'g'ri
28. Makedoniyalik Aleksandr qachon Fors davlatini bosib olgan?
☑ mil.avv.330-yil
29. Tarixda Ahamoniylar davlati necha yil hukmronlik qilgan?
☑ ikki yuz yildan ziyod

Shuhratbek.uz

## 16-Hindiston sivilizatsiyasi (23)

### Savollar va javobi

1. Hindiston mamlakati Osiyo qit'asida qaysi hududlarini egallagan?
☑ Hind va Gang daryolari vodiylarini
2. Hind daryosi vodiysida qachon yagona davlatga birlashgan katta shaharlar vujudga kela boshlagan?
☑ mil.avv.3-mingyillikda
3. Mil.avv.3 -mingyillikda Hind daryosi havzasining eng yirik shaxarlarini belgilang?
☑ Moxenjodoro, Xarappa
4. Hind daryosi vodiysi manzilgohlari qachon zavolga yuz tutdi?
☑ mil.avv.XVIII asrda
5. Hindiston hududiga ko'chmanchi oriylar qachon bostirib kelgan?
☑ mil.avv.1500-yil
6. Olimlarning faraziga ko'ra oriylar qayerda yashaganlar?
☑ Sharqiy Yevropa va Uralda
7. Hind daryosi vodiysidagi Moxenjodoro va Xarappa shaharlari nima sababdan butunlay zavolga yuz tutgan?
☑ oriylar hujumi tufayli
8. Hindlar tasavvuriga ko'ra qaysi hudo har tongda oltin aravada osmon bo'ylab yo'lga chiqadi?
☑ quyosh xudosi
9. Hindlar tasavvuricha Indra qanday xudo bo'lgan?
☑ momaqaldiroq xudosi
10. Hindlarda boshi filnikiga o'xshash donishmand bosh xudoni aniqlang?
☑ Ganesha
11. Hindlarda qaysi xayvonni o'ldirgan kimsa jinoyatchi deb e'lon qilingan?
☑ sigirni o'ldirsa
12. Qadimda qaysi xalq odam vafot etgandan so'ng butunlay o'lmaydi, balki boshqa bir mavjudotga aylanib, hayvonga, qumursqaga aylanadi deb hisoblashgan?
☑ hindlar
13. Qadimgi hindlarda aholi tabaqalari qanday atalgan?
☑ kasta yoki varna
14. Qadimgi hindlarda kohinlar qaysi tabaqaga kirishgan?
☑ braxmanlar
15. Qadimgi hindlarda jangchilar qaysi tabaqaga kirganligini aniqlang?
☑ kshatriylar
16. Qadimgi hindlarda vayshilar tabaqasiga kimlar mansub bo'lishgan?
☑ hamma javoblar to'g'ri
17. Qadimgi hindlarda xizmatkorlar va qullar qaysi tabaqaga mansub bo'lishgan?
☑ shudralar
18. Qadimgi hindlar e'tiqodiga ko'ra aholi tabaqalari qaysi xudoning jismidan yaratilgan deb hisoblangan?
☑ Braxma
19. Qadimgi hindlar e'tiqodiga ko'ra xudo Braxmanning qo'llaridan qaysi tabaqa yaratilgan?
☑ jangchilar
20. Qadimgi hindlar e'tiqodiga ko'ra xudo Braxmaning dahanidan qaysi tabaqa yaratilgan?
☑ kohinlar
21. Qadimgi hindlar e'tiqodiga ko'ra xudo Braxmaning oyoqlari tovonidan qaysi tabaqa yaratilgan?
☑ xizmatkorlar
22. Qadimgi hindlarda birorta ham tabaqaga mansub bo'lmaganlar qanday atalgan?
☑ chandal

Shuhratbek.uz

23. Qadimgi hindlarda aholining qaysi tabaqasi qishloqlardan tashqarida yashashga majbur bo’lganlar?
☑ chandallar

## 17-Miloddan avvalgi I -mingyillikda Hindiston (18)

### Savollar va javobi

1. Hindistonda Malla, Koshala, Magadha davlatlari qachon vujudga kelgan?
☑ mil.avv.VII-VI asrlarda
2. Makedoniyalik Aleksandr qachon Panjob o’lkasiga bostirib kirgan?
☑ mil.avv.327-yilda
3. Makedoniyalik Aleksandr qachon Hind vodiysidan Bobilga qaytib ketgan edi?
☑ mil.avv.325-yilda
4. Yunon-makedon qo’shinlari Hindistondan butunlay quvib yuborilgan sanani aniqlang?
☑ mil.avv.318-yilda
5. Hindistonda yunon va makedon qo’shinlariga qarshi kurshga kim boshchilik qilgan?
☑ Chandragupta
6. Shimoliy Hindistondagi Maurya davlatiga kim asos solgan edi?
☑ Chandargupta I
7. Maurya davlatining poytaxti qaysi shahar bo’lgan?
☑ Pataliputra shahri
8. Maurya davlati mil.avv.III asrda qaysi hukmdor davrida rivojlanishda yuksak pog’onalarga erishgan?
☑ Ashoka
9. Ashoka vafotidan so’ng Maurya davlatini qaysi davlat bosib olgan?
☑ Kushon podsholigi
10. Qadimiy hind afsonalariga ko’ra Shiva qanday xudo hisoblangan?
☑ bunyodkorlik va vayrongarchilik hudosi
11. Hindiston qachon ilm-fan hususan astronomiya va matematika sohasida yuksak darajaga erishgan?
☑ mil.avv.1 -mingyillikda
12. Hindistonda ixtiro qilingan shaxmat o’yini dastlab qanday atalgan?
☑ «qo’shinning to’rt turi»
13. Qadimda qaysi xalq birinchi bo’lib shakarqamishdan shakar olishni ixtiro qilgan?
☑ hindlar
14. Qadimgi hind tillari asosida qaysi yangi adabiy til ishlab chiqilgan?
☑ sanskrit tili
15. Qadimgi sanskrit tilida yozilgan dostonlarni aniqlang? 1.«Mahobharata» 2.«Kalila va Dimna» 3.«Ramayana» 4.«Rigveda» 5.«Panchatantra»
☑ 1,3,5
16. Hindistonda vujudga kelgan buddaviylik dinining yaratilishi kimning nomi bilan bog’liq?
☑ shahzoda Siddhartha Gaumata
17. Qaysi din avvaliga «xudolarsiz din» bo’lgan edi?
☑ budda dini
18. Budda so'zining ma'nosini aniqlang.
☑ Ma'rifatlangan

## 18-Xitoyning qadimgi sivilizatsiyalari (14)

### Savollar va javobi

Shuhratbek.uz

1. Xitoyda dastlabki sivilizatsiyalar qachon vujudga kelgan?
☑ mil.avv.3-2-mingyillikda
2. Qadimgi Xitoy davlati qayerda vujudga kelgan edi?
☑ Xuanxe daryosining o’rta oqimida
3. Xitoychada qaysi daryoning nomi «sariq daryo» ma’nosini bildirgan?
☑ Xuanxe
4. Qadimgi xitoyliklar Xuanxe daryosini qanday nom bilan ta’riflagan edilar?
☑ barcha javoblar to'g'ri
5. Qadimgi Xitoyda qachon qabilalar ittifoqlari vujudga kela boshlagan?
☑ mil.avv.3-mingyillikda
6. Xitoyda mil.avv.2-mingyillikda ittifoq-shaharlar yagona davlatga birlashishi natijasida qaysi davlat vujudga kelgan?
☑ Shan davlati
7. Xitoyda mil.avv.2-mingyillik oxirida Shan davlatiga qaysi qabilalar bostirib kirgan edi?
☑ chjou qabilasi
8. Xitoyda chjou qabilalari Shan davlati o’rnida qaysi davlatni barpo qilishgan?
☑ Chjou davlati
9. Chjou podsholigi kattaligi bois hukmdorlar uni qanday atashar edi?
☑ Zafaryor yoki O'rta podsholik
10. Qadimda qaysi davlat hukmdorlari o’zlarini «Osmon o’g’illari» deb atashganlar?
☑ Chjou davlati
11. Xitoyga sholi urug’i dastlab qayerdan keltirilgan edi?
☑ Hindistondan
12. Xitoy aholisi qadimda sholidan tashqari yana qaysi mashxur o’simlik va daraxtni o’stirganlar?
☑ choy va tut daraxti
13. Chjou davlatida markaziy hokimiyat qachon zaiflasha boshlagan?
☑ mil.avv.VIII-VII asrlarda
14. Xitoyda Sin davlati qachon tuzilganligini aniqlang?
☑ mil.avv.III asrda

## 19-Miloddan avvalgi III—milodiy II asrlarda Xitoy (19)

### Savollar va javobi

1. Sin davlatining birinchi hukmdori Sin Shixuandining hukmronlik qilgan yillarini aniqlang?
☑ mil.avv.246-210-yillar
2. Sin Shixuandi o’z davlati hududini nechta viloyatga taqsimlagan?
☑ 36 viloyatga
3. Xitoyning qaysi hukmdori o'ziga atab maqbara qurishga farmon bergan edi?
☑ Sin Shixuandi
4. Qaysi hukmdor qabridan imperatorni qo’riqlash uchun o’rnatilgan 6 mingta sopol askarlar haykallari topilgan ?
☑ Sin Shixuandi
5. Qadimda qaysi maqbara 720 ming odam bilan 37 yilda bunyod etilgan edi?
☑ Sin Shixuandi maqbarasi
6. Xitoyda Buyuk devorni qurish qaysi hukmdor davrida boshlangan edi?
☑ Sin Shixuandi
7. Qadimda balandligi 12 metr, kengligi 5 metr, uzunligi 4000 kilometr bo’lgan devor qayerda qurilgan?
☑ Xitoy
8. Sin sulolasiga qarshi Lyu Ban boshchiligidagi dexqonlar qo’zg’oloni qachon boshlangan?
☑ mil.avv.206-yil

Shuhratbek.uz

9. Sin davlati xarobalari o'rnida qaysi sulola boshchiligida yangi davlat barpo etilgan?
☑ Xan sulolasi
10. Xan davlati qachongacha mavjud bo'lgan edi?
☑ 220-yilgacha
11. Mil.avv.140-87-yillarda Xan davlatini eng qudratli davlatga aylantirgan hukmdorni aniqlang?
☑ U-Di
12. Xitoy hukmdori Sin Shixuandi xunnlarning hujumidan himoyalanish uchun qanday chora ko'rgan edi?
☑ Buyuk devor qurdirishni boshlagan
13. Qadimda «qizil qoshlilar» qo'zg'oloni qaysi davlatda ro'y bergan?
☑ Xan davlatida
14. Xitoyda «sariq ro'molilar qo'zg'oloni» qachon ro'y bergan?
☑ milodiy II asrda
15. Xitoy imperiyasi qachon uchta podsholikka parchalanib ketgan?
☑ IV asrda
16. Xitoyda qachondan bambuk o'rniga ipakdan foydalanishga o'tilgan?
☑ ikki yarim ming yil muqaddam
17. Xitoyda qog'oz qachon ixtiro qilingan?
☑ mil.avv.I asrda
18. Xitoyda ixtiro qilingan zilzilani oldindan aytib beruvchi asbob qanday nomlangan?
☑ seysmograf
19. Xitoyliklar ixtiro qilgan dunyo tomonlarini aniqlovchi asbob qanday nomlangan?
☑ kompas

## 20-O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar (32)

### Savollar va javobi

1. Mil.avv.VII-VI asrlarda O'zbekiston hududida qaysi elatlar yashagan?
☑ hamma javoblar to'g'ri
2. Zarafshon va Qashqadaryo vohasi «Avesto» kitobida qanday nomlangan?
☑ So'g'da
3. Zarafshon va Qashqadaryo vohasi qaysi manbada «So'g'uda» deb nomlangan?
☑ Behistun bitiklarida
4. Zarafshon va Qashqadaryo vohasi Arrian, Strabon asarlarida qanday nomlangan?
☑ So'g'diyona
5. Mil.avv.VII-VI asrlarda Zarafshon va Qashqadaryo vohasida yashaydigan aholi qanday nomlangan?
☑ so'g'diylar
6. Mil.avv.VII-VI asrlarda Amudaryoning quyi oqimida yashagan o'troq aholini aniqlang?
☑ xorazmliklar
7. Mil.avv.VII-VI asrlarda xorazmliklar yashagan yurt «Avesto»da qanday nomlangan?
☑ Xvarizam
8. Mil.avv.VII-VI asrlarda xorazmliklar yashagan yurt qaysi manbada «Xorasmiya» deb nomlangan?
☑ Arrian, Strabon asarlarida
9. Mil.avv.VII-VI asrlarda xorazmliklar yashagan yurt Behistun bitiklarida qanday nomlanganligini aniqlang?
☑ Xvarazmish
10. Mil.avv.VII-VI asrlarda baqtriyaliklarning yurti qayerda joylashgan edi?
☑ hamma javoblar to'g'ri
11. Mil.avv.VII-VI asrlarda baqtriyaliklar yashagan yurt «Avesto»da qanday nomlangan?

Shuhratbek.uz

☑ Baxdi
12. Mil.avv.VII-VI asrlarda baqtriyaliklar yashagan yurt qaysi manbada Baqtrish deb nomlangan?
☑ Behistun yozuvlarida
13. Mil.avv.VII-VI asrlarda baqtriyaliklar yashagan yurtni yunon-rim mualliflari qanday ataganlar?
☑ Baqtriana
14. Mil.avv.VII-VI asrlarda cho'llar va Amudaryo bo'ylarida qaysi qabilalar yashagan?
☑ massagetlar
15. Mil.avv.VII-VI asrlarda O'rta Osiyoning tog'lik, dasht, cho'l yerlarida asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan qaysi xalqlar istiqomat qilishar edi?
☑ saklar
16. O'rta Osiyoda yashagan saklar qachon harbiy qabila ittifoqini tuzganlar?
☑ mil.avv.VI asrda
17. Saklarning saka-tigra-xaudalar(o'tkir uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar) guruhi hozirgi qaysi hududda yashaganlar?
☑ Janubiy Qozog'istonda va Toshkent viloyati
18. Qadimgi yunon-rim mualliflarining yozishlaricha O'rta Osiyoda yashovchi qaysi xalqlar uch guruhga bo'lingan edilar?
☑ saklar
19. Saklarning saka-tiay-taradayya(daryoning narigi tomonida yashovchi saklar) guruhi qayerlarda yashaganlar?
☑ Sirdaryoning quyi oqimida va Orol dengi bo'ylarida
20. Qaysi daryoning qadimgi nomi Yaksart deb atalgan edi?
☑ Sirdaryo daryosi
21. Saklarning saka-xau-movarka deb ataluvchi guruhi qayerlarda yashagan edilar?
☑ Pomirning tog'li tumanlari va Farg'onada
22. O'rta Osiyoda qachon qadimgi shaharlar rivojlangan?
☑ mil.avv.VII-VI asrlarda
23. Mil.avv.VII-VI asrlarda mavjud bo'lgan Yerqo'rg'on va Uzunqir shaharlari qayerda bo'lgan?
☑ Qashqadaryo
24. Mil.avv.VII-VI asrlarda rivojlangan Ko'zaliqir shahri qayerda bo'lgan?
☑ Xorazm
25. Mil.avv.VII-VI asrlarda Qiziltepa shahri qayerda joylashgan edi?
☑ Surxondaryo
26. O'rta Osiyo hududidagi qadimgi davlatlardan biri Qadimgi Baqtriya qachon tashkil topgan?
☑ mil.avv.VII asrda
27. Mil.avv.VII-VI asrlarda Qadimgi Baqtriya ta'sirida bo'lgan hududlarni aniqlang?
☑ hamma javoblar to'gri
28. Qadimgi Xorazm davlatining markazi qaysi shahar bo'lgan?
☑ Ko'zaliqir
29. Qadimgi Xorazmda qaysi sohalar yuksak darajada rivojlangan edi? 1.kulolchilik 2.hunarmandchilik 3.dexqonchilik 4.binokorlik 5.chorvachilik 6.savdo-sotiq
☑ 2,4,6
30. Afrosiyob shahriga qachon va qayerda asos solingan?
☑ mil.avv.VIII-VII asrlarda Samarqandda
31. O'zbekistonda ilk temir asriga o'tish qachon boshlangan?
☑ mil.avv.IX-VIII asrda
32. Qadimgi Afrosiyob shahri Samarqandning qaysi qismida bunyod etilgan edi?
☑ sharqida

## 21-22-Zardushtiylik (21)

**Savollar va javobi**

Shuhratbek.uz

1. Zardushtiylik diniga ko’ra Ahuramazda va odamlar o’rtasida bosh vositachi bo’lgan xudoni aniqlang?
☑ Mitra
2. Zardushtiylik diniga ko’ra Mitra qanday tasvirlangan?
☑ o’spirin va jangchi sifatida
3. Zardushtiylik dinida yovuzlik va o’lim xudosini aniqlang?
☑ Ahriman
4. Zardushtiylikda Anahita qanday xudo hisoblangan?
☑ hosildorlik va suv ilohasi
5. Yulduzlar joylashuviga qarab kelajakni bashorat qilish bilan shug’ullanuvchi odam qanday ataladi?
☑ astrolog
6. «Avesto»ning alohida qismlarini ilk bora qaysi olim tarjima qilgan?
☑ A.Dyuperron
7. Zardusht necha yoshida yangi diniy ta’limot payg’ambariga aylangan?
☑ 30 yoshida
8. Payg’ambar so’zi qanday ma’noni bildirishini aniqlang?
☑ «ezgu amallar haqida mujda beruvchi»
9. «Avesto» ning ilk qismi qachon paydo bo’lganligini aniqlang?
☑ mil.avv.IX-VIII asrlarda
10. Qachon Zardusht va’zlari matnlarining hammasi 21 kitobga jamlangan?
☑ mil.avv.III asrda
11. «Avesto» matnlariga sharh nima deb yuritiladi?
☑ Zand
12. Zardushtiylik an’analariga ko’ra inson suyaklari dafn etiladigan maxsus sopol tobutchalar qanday nomlangan?
☑ ossuariy
13. Zardushtiylar umrining tub ma’nosi nima bo’lishi lozimligini aniqlang?
☑ ezgu amal, ezgu so’z, ezgu fikr
14. O’rta Osiyoda zardushtiylik dini qachon keng tarqalgan?
☑ mil.avv.1-mingyillikda
15. Zardushtiylar dastlab qanday unsurlarga sig’inib ularni muqaddas bilishgan?
☑ hamma javoblar to’g’ri
16. Zardusht ismli tarixiy shaxs qachon yashab o’tganligini aniqlang?
☑ mil.avv.1 -mingyillik birinchi yarmida
17. Zardushtning ismi qaysi davlatda «Zoroastr» shaklida aytilgan?
☑ Yunonistonda
18. Zardushtiylik dini tarqala boshlagan kezlarda diniy marosimlar qayerda o’tkazilar edi?
☑ hamma javoblar to’g’ri
19. «Avesto» so’zi qanday ma’noni anglatadi?
☑ «qat’iy belgilangan qonun-qoidalar»
20. Zardushtiylikning ulug’ va donishmand oliy xudosini aniqlang?
☑ Ahuramazda
21. Zardushtiylik dinida quyosh va yorug’lik xudosi, dexqonlar va chorvadorlarning hosildorlik, faravonlik va mol-davlat bag’ishlovchi homiysi qaysi xudo bo’lgan?
☑ Mitra

## 23-Antik tarixning boshlanishi (14)

**Savollar va javobi**

Shuhratbek.uz

1. Krit orolining markazi bo'lgan shaharni aniqlang.
☑ Knoss
2. Yunonistonda eng baland tog’ qaysi bo’lgan?
☑ Olimp tog’i
3. Qadimgi Yunonistonda qachondan ilk-shahar davlatlar vujudga kela boshlagan?
☑ mil.avv.2-mingyillikda
4. Qadimgi Yunonistonda mil.avv.2 -mingyillikda vujudga kelgan davlatlarni aniqlang?
☑ Knoss, Mikena, Tirinf, Pilos
5. Mil.avv.2-mingyillikda Minoy sivilizatsiyasi qayerda vujudga kelgan?
☑ Krit orolida
6. Krit oroliga Yunoniston hududidan mikena qabilalari bostirib kirgan sanani aniqlang?
☑ mil.avv.1450-yil
7. Minoy sivilizatsiyasini barbod bo’lishini nihoyasiga yetkazgan qabilalarni aniqlang?
☑ axey qabilalari
8. Doriylar qachon janubiy Yunonistonga bostirib kirganlar va Miken davlatini yakson qilganlar?
☑ mil.avv.1200-yil
9. Sparta davlatiga qaysi xalqlar asos solishgan edi?
☑ doriylar
10. Odamlar yashaydigan hududlarni Yunonlar qanday atashgan?
☑ oykumena
11. Qadimgi Yunonlarning jangovar kemasi qanday atalgan?
☑ triyera
12. Ellada nomi qadimda qaysi davlatga tegishli bo’lgan?
☑ Yunoniston
13. Dastlab Yunonistonning barcha aholisi qanday nomlangan?
☑ ellinlar
14. Yunonistonning sharqida joylashgan dengizni aniqlang.
☑ Egey dengizi

## 24-25-Qadimgi Yunoniston ravnaqi (41)

### Savollar va javobi

1. Qadimgi Yunonistonda qachon dehqonchilik va hunarmandchilikning rivoj topishi bilan manzilgohlar va shaharlar soni ham ortib borgan?
☑ mil.avv.IX-VII asrlar
2. Qadimgi Yunonistonda I -mingyillikda qaysi shahar-davlatlar eng yiriklari bo’lgan?
☑ Afina va Sparta
3. Yunonistonda qachon Finikiya alifbosiga asoslangan yangi yozuv vujudga kelgan?
☑ mil.avv.VIII asrda
4. Yunon koloniyalaridan Yunonistonga qanday mahsulotlar kelitirlganligini aniqlang?
☑ g’alla, metall, qullar
5. Yunonistondan koloniyalariga sotish uchun qanday mahsulotlar keltirilganligini aniqlang?
☑ vino, zaytun yog’i, kulolchilik hamda temirchilar, zargarlar yasagan buyumlar
6. Finikiya alifbosiga asoslangan yunon yozuvi necha harfdan iborat bo’lgan?
☑ 24 harf
7. Qadimgi Yunonistonda shahar-davlatlar qanday aytilgan?
☑ polis
8. «Polis» atamasi qanday ma’noni bildiradi?
☑ «shahar» ma’nosini
9. Qadimgi Yunon shahar-davlatlarining armiyasi asosini tashkil qiluvchi og’ir qurollangan askarlar qanday atalgan?

Shuhratbek.uz

☑ goplit
10. Qadimgi Yunonistonda og'ir qurollangan askarlarning bir necha, odatda 9 yoki 16 qator saf tortishi qanday nomlangan?
☑ falanga
11. Attika viloyati qayerda joylashganligini aniqlang?
☑ O'rta Yunonistonning janubi-sharqida
12. Attikaning g'arbiy qismida qachon yunonlar «Akropol»(Yuqori shahar) deb atalgan qal'a qurganlar?
☑ mil.avv.2-mingyillik
13. Qadimgi Yunonistonda qurilgan Akropol(Yuqori shahar) atrofiga odamlar ko'chib joylashishi oqibatida qaysi shahar vujudga kelgan?
☑ Afina
14. Qadimgi Attika viloyati aholisi qaysi guruhlarga bo'lingan edi?
☑ 3 guruhga-qullar, ajnabiylar, fuqarolar
15. Qadimda Afina davlat fuqarosi bo'lish uchun qanday shart qo'yilar edi?
☑ otasi va onasi ozod afinalik bo'lishi kerak edi
16. Qadimgi Attika viloyatida kimlarni «meteklar» deyishgan?
☑ ajnabiylarni
17. Qadimgi Afina davlatida qachondan boshlab davlat organlarida ishlashga haq to'lanib boshlangan?
☑ mil.avv.V asrdan
18. Qadimgi Afina davlatiga foyda keltiruvchi sohalarni aniqlang?
☑ hamma javob to'g'ri
19. Afina davlatining asosiy porti qaysi bandargoh bo'lgan?
☑ Pirey porti
20. Afina dengiz ittifoqi g'aznasi qaysi davlatda joylashgan edi?
☑ Afina
21. Afinada ota-onalar o'z bolalarini qanday o'qitishar edilar?
☑ pedagogga haq to'lab o'qitishar edi
22. Yunonchadan tarjima qilganda «pedagog» atamasi qanday ma'noni bildiradi?
☑ «bolani yo'lda kuzatib boruvchi»
23. Afina davlatida bolalarga necha yoshidan boshlab yozuv va hisob o'rgatilgan?
☑ 7 yoshdan
24. Afinada puldor ota-onalarning farzandlari o'qishini qayerda davom qildirishgan?
☑ palestrlarda
25. Afina palestrlarida o'quvchilarga qanday fanlar o'qitilgan?
☑ adabiyot, she'r yozish, musiqa
26. Afinada o'g'il bolalar necha yoshidan gimnastika bilan shug'ullanganlar?
☑ 14 yoshdan
27. Afina palestrlaridan joy olgan «Diskobol»(Disk uloqtiruvchi) haykalining muallifi kim bo'lgan?
☑ Miron
28. «Nayzabardor» haykalining muallifi kim bo'lgan?
☑ Poliklet
29. Afinada oliy ma'lumot beradigan o'quv yurtlarida qaysi fanlar o'qitilgan?
☑ astronomiya, geometriya, geografiya, tarix
30. Janubiy Yunonistonga mil.avv.XII asrda qaysi qabilalar bostirib kirishgan?
☑ doriylar
31. Janubiy Yunonistonda doriylar qaysi davlatga asos solishgan?
☑ Sparta
32. Spartada qulga aylantirilgan yunonlarni qanday atashgan?
☑ ilotlar
33. Mil.avv.VIII-VII asrlarda Yunonistondagi qaysi davlatda qulga aylantirilgan aholi ko'pchilikni

Shuhratbek.uz

tashkil qilgan?
☑ Sparta
34. Spartaliklar o’z hukmronligini kuch bilan saqlab qolish uchun davlatda alohida shart-sharoitlar yaratganlar.Qanday tartib joriy qilganliklarini aniqlang?
☑ hamma javoblar to’g’ri
35. Qadimgi qaysi davlatda faylasuflar ham, rassomlar ham, olimlar ham yo’q bo’lgan?
☑ Sparta
36. Spartada to’la – to’kis huquqlarga ega bo’lmagan fuqarolar qanday atalgan?
☑ periyek
37. Spartada periyeklar qaysi huquqlardan mahrum qilingan edilar?
☑ Xalq kengashida ishtirok qilish va armiyada xizmat qilish huquqidan
38. Qadimda qaysi davlatda ayollarni jismoniy mashqlar bilan shug’ullanishga va sport musobaqalarida qatnashishga majbur qilishgan?
☑ Sparta
39. Buyuk Yunon koloniyalashtirishi davri qaysi asrlarda bo’lgan?
☑ mil.avv.VIII-VI asrlar
40. Yunonlar yunon bo’lmagan xalqlarni qanday nom bilan atashgan?
☑ varvarlar
41. Buyuk Yunon koloniyalashtirishi davrida Qora dengiz bo’yida qaysi yunon koloniyalari vujudga kelgan?
☑ hamma javoblar to’g’ri

## 26-Afinada demokratiya (27)

### Savollar va javobi

1. Qadimgi Yunoniston shaharlarida xalq yig’ilishi joyi, markaziy maydon qanday atalgan?
☑ Agora
2. Afinada barcha erkak fuqarolar yuzaga kelgan muammoni muhokama qilish uchun qayerda yig’ilish o’tkazganlar?
☑ Akropolda
3. Demokratiya so’zi qanday ma’noni bildiradi?
☑ «xalq hokimiyati»
4. Afinada Drakont qachon xalq boshqaruvini bekor qilgan qonunlarni yozadi va amalga kiritadi?
☑ mil.avv.621-yil
5. Qadimgi Afinaliklar qaysi qonunga «siyoh qolib,qon bilan yozilgan» deya ta’rif berishgan?
☑ Drakont qonunlariga
6. Drakont qonunlariga ko’ra faqat qanday jazo belgilanar edi?
☑ o’lim jazosi
7. Qadimgi Afina aholisi qaysi qismlarga bo’lingan?
☑ zodagon va demosga
8. Afinada qachon Solon davlatni idora qilishning oldingi tizimini o’zgartirib, aristokratiya tizimini demokratiyaga almashtirgan?
☑ mil.avv.594-yil
9. Qadimgi Yunonistonda kimlar qabul qilinayotgan qonunlar muhokamasida va ovoz berishda ishtirok eta olmasdilar?
☑ hamma javoblar to’g’ri
10. Afinada Solon islohoti qanday tartiblarni bekor qilgan?
☑ dehqonlarning qarzlarini va qullikni
11. Solon islohotidan keyin Attika aholisi qanday tabaqalarga ajratilgan?
☑ fuqarolar va qullar
12. Afinada fuqarolar 20 yoshdan boshlab qaysi organ faoliyatida ishtirok etardilar?

Shuhratbek.uz

☑ Xalq majlisi
13. Afina Xalq majlisi qanday qarorlar qabul qilingan?
☑ hamma javoblar to’g’ri
14. Afinada mansabdor shaxslar qaysi organ tomonidan saylanar edi?
☑ Xalq majlisi
15. Afinada kundalik joriy masalalarni hal qiladigan, har yili saylanadigan organni aniqlang?
☑ Beshyuzlar kengashi
16. Afinada Beshyuzlar kengashi qarorlarni qaysi organ tasdiqlagan?
☑ Xalq majlisi
17. Afinada Beshyuzlar kengashiga rahbarlik qiluvchi shaxs qanday atalgan?
☑ strateg
18. Afinada xalq sudi faoliyatida kimlar ishtirok etganlar?
☑ 30 yoshga to’lgan fuqarolar
19. Afinada Perikl qaysi yillarda strateg lavozimida faoliyat yuritgan?
☑ mil.avv.443-429-yillar
20. Afinada kim 15 marotaba strateg lavozimiga saylangan?
☑ Perikl
21. Afinada qaysi strateg tarixchi Gerodot, haykaltarosh Fidiy bilan do’st tutingan edi?
☑ Perikl
22. Afinda qaysi strateg hech mahal o’zining siyosiy muxoliflari va uning hatti-harakatlarini tanqid qilgan kishilarni ta’qib etmagan?
☑ Perikl
23. Afinada kim Xalq Majlisidagi lavozimlarga ish haqi to’lashni joriy qilgan?
☑ Perikl
24. Akropoldagi eng mashhur inshoot iloha Afina ibodatxonasi qaysi bo’lgan?
☑ Parfenon
25. Forslar tor-mor etilganidan keyin Afinaning asosiy raqibi qaysi davlat bo’lib qolgan?
☑ Sparta
26. Kim Afinadan to Pirey dengiz portiga mudofaa devorlari qurish to’grisida buyruq bergan edi?
☑ Perikl
27. Afinaliklar homiysi qaysi iloha bo’lganligini aniqlang?
☑ Afina

## 27-Yunon-fors urushlari (15)

### Savollar va javobi

1. Mil.avv.V asr boshlarida Yunonistonga qaysi davlat tahdid sola boshlagan?
☑ Forslar davlati
2. Yunon-fors urushlari qaysi yillarda bo’lib o’tgan?
☑ mil.avv.490-449-yillarda
3. Yunonistonda qaysi davlat forslarga itoat qilmagan?
☑ Afina va Sparta
4. Qachon Fors shohlari Kichik Osiyodagi Yunon shahar-davlatlarini bosib oladilar?
☑ mil.avv.VI asrda
5. Qachon fors harbiy floti Egey dengizini kesib o’tib, Attika sohiliga yetib kelishgan?
☑ mil.avv.490-yil sentabr
6. Yunonlar va forslar o’rtasida Marafon jangi qachon bo’lib o’tgan?
☑ mil.avv.490-yil
7. Marafon jangida Yunon qo’shinlariga kim rahbarlik qilgan?
☑ Miltiad
8. Eron shohi Doro I vafot etgach forslarni Yunonistonga qaysi hukmdor boshlab kelgan edi?

Shuhratbek.uz

☑ Kserks
9. Yunon-fors urushlari davrida Gellespont bo'g'ozida kimning buyrug'i bilan bir kilometrdan uzun ko'prik qurilgan edi?
☑ Kserks
10. Fermopil jangi qachon bo'lganligini aniqlang?
☑ mil.avv.480-yil
11. Fermopil jangida Yunon qo'shinlariga kim boshchilik qilgan edi?
☑ Leonid
12. «Uch yuz spartalik jasorati» voqeasi qaysi jangda bo'lganligini aniqlang?
☑ Fermopil jangi
13. Yunonlar va forslar o'rtasida Salamin bo'g'ozidagi jang qaysi yilda bo'lgan?
☑ mil.avv.480-yil
14. Yunonlar qo'shini qachon Plateya shahri yaqinida fors qo'shinlarini tor-mor qilishgan edi?
☑ mil.avv.479-yil
15. Yunon-fors urushlaridan keyin tuzilgan sharnomada fors shohi qanday shartlarni qabul qilgan edi?
☑ Old Oiyodagi barcha yunon polislarini mustaqilligini e'tirof qilgan va yunonlarga qarshi harbiy harakatlar olib bormaslikga rozi bo'lgan

## 28-Yunonistonning Makedoniya tomonidan bosib olinishi (12)

### Savollar va javobi

1. Makedoniya podshosi Filipp II ning 16 qatordan iborat piyoda qo'shinlari safi qanday atalgan?
☑ falanga
2. Yunoniston shaharlari aholisini birlashish va makedonlarga qarshi kurashishga da'vat qilgan notiq kim bo'lgan?
☑ Demosfen
3. Yunonistonda Filipp II qo'shinlariga qarshi Afina shaharlari ittifoqiga qaysi shahar aholisi qo'shilgan edi?
☑ Fiva
4. Xeroniya shahridagi Beotiyada qachon yunonlar va makedonlar asosiy kuchlari to'qnashgan?
☑ mil.avv.338-yil 2-avgust
5. Mualliflar qaysi jang haqida «halok bo'lganlarning jasadlari bilan birga Yunonlarning ozodligi va erki ham dafn etilgan edi» deb yozgan edilar?
☑ Xeroniya jangi
6. Kim «Yunon ozodligi Xeroniya ostonasida halok bo'lganlar bilan birgalikda dafn qilindi» deb yozgan edilar?
☑ Demosfen
7. Makedoniya hukmdori Filipp II forslarga qarshi qaysi xalq bilan ittifoq tuzadi?
☑ yunonlar bilan
8. Korinf ittifoqi qachon vujudga kelgan?
☑ mil.avv.337-yil
9. Korinf ittifoqida Yunonistondagi qaysi davlat qatnashmagan edi?
☑ Sparta
10. Korinf ittifoqiga birlashgan davlatlar qanday shartga kelishgan edilar?
☑ hamma javoblar to'g'ri
11. Korinf ittifoqiga kirgan davlatlar o'rtasidagi barcha ixtiloflarni qaysi muassasa hal etishi lozim edi?
☑ Yunon shahar-davlatlari kengashi
12. Makedoniya shohi Filipp II qachon xoinlar tomonidan o'ldirilgan?
☑ mil.avv.336-yil

Shuhratbek.uz

## 29-30-Qadimgi Yunoniston madaniyati (32)

### Savollar va javobi

1. Yunon maktablarida bolalar ikki yillik harbiy ta’limning birinchi yilida nimani o’rganishgan?
☑ safda yurish, qurol taqib yurish, ochlik va sovuqqa chidamli bo’lishni
2. Yunon maktablarida o’g’il bolalar harbiy ta’limning ikkinchi yilida nima o’rganishgan?
☑ Attikaning chegara qal’alarida harbiy xizmatni o’tagan va Pirey portida dengizchilik san’ati o’rganishgan
3. Olimpiya o’yinlari qachon ilk bora o’tkazilgan?
☑ mil.avv.776-yilda
4. Yunonistonda Olimpiya o’yinlari qaysi xudo sharafiga bag’ishlab o’tkazilgan?
☑ Zevs
5. Afsonalarga ko’ra Olimpiada o’yinlarining asoschisi kim bo’lganligini aniqlang.
☑ Gerakl
6. Yunonistonda Olimpia o’yinlarida kimlar ishtirok etishga haqli bo’lgan?
☑ jinoyat sodir etmagan ozod yunonlar
7. Yunonistonda sportchilar Olimp tog’ida o’z haykalini o’rnatish uchun nima qilishi kerak bo’lgan?
☑ musobaqalarda 3 karra g’alaba qozongan sportchi bo’lishi kerak
8. Yunonistonda alohida yugurish bo’yicha musobaqalar kimlar uchun o’tkazilar edi?
☑ ayollar uchun
9. Qachondan boshlab Olimpia o’yinlari o’tkazilmasdan qolgan?
☑ 394-yildan
10. Zamonaviy Olimpia o’yinlari qachon qayta tiklangan edi?
☑ 1896-yil
11. Yunonlar qachon Kichik Osiyoda joylashgan Troyaga yurish qilishgan?
☑ mil.avv.1200-yil
12. Sparta podshosining rafiqasi Sohibjamol Yelenani kim Troyaga o’g’irlab ketgan edi?
☑ Troya podshosining o’g’li Paris
13. Yunonlar Troyani necha yil natijasiz qamal qilganlar?
☑ 9 yil
14. Troya urushining oxirgi o’ninchi yili haqida hikoya qiluvchi dostonni aniqlang.
☑ «Iliada» dostoni
15. Kimning maslahati bilan yunonlar Troya urushida «Troya oti»ni yordamida g’alaba qozongan edilar?
☑ Odissey
16. «Iliada» dostonining bosh qahramoni kim bo’lganligini aniqlang.
☑ Axilles
17. «Iliada» va «Odissey» poemalarining muallifini aniqlang.
☑ Gomer
18. Yunonistonda qaysi yozuvchi so’qir bo’lib yurtma-yurt kezib cholg’u asbobi jo’rligida o’z she’rlarini kuylab yurardi?
☑ Gomer
19. Qaysi olim XIX asrning oxirida Gomer hikoyalarini tadqiq qilib Troya joylashgan yerni aniqlagan?
☑ G.Shlimann
20. Troya xarobalarini Genrix Shlimann qachon va qayerdan topgan edi?
☑ 1870-yil Turkiyada Hisorlik tepaligidan
21. Yunonistonda teatr qachon dunyoga vujudga kelgan edi?
☑ bundan ikki yarim ming yil muqaddam

Shuhratbek.uz

22. «Teatr» so'zi yunonchadan tarjima qilinganda qanday ma'noni bildiradi?
☑ «tomoshalar uchun joy»
23. Yunoniston teatrlarida qatnashuvchi kishilar halok bo'lishi bilan tugaydigan pyesalar nima deb atalgan?
☑ tragediya
24. «Shoh Edip», «Antigona» singari mashhur tragediyalarni muallifini aniqlang.
☑ Sofokl
25. Qadimgi Yunonistonda kim komediyalar ustasi bo'lgan?
☑ Aristofan
26. Aristofan yozmagan asarlarni aniqlang.
☑ «Antigona»
27. Qadimgi Yunonistonda qachondan boshlab ibodatxonalar va boshqa jamoat binolari toshdan qurilib boshlangan?
☑ mil.avv.VII asrda
28. Tarixchilar qaysi davlat haqida «tirik odamlarga qaraganda jonsiz haykallar ko'proq» deb yozishgan edilar?
☑ Afina
29. Afinada qaysi haykaltarosh Parfenon barpo etilishi va Akropol qayta qurilishiga boshchilik qilgan?
☑ Fidiy
30. Yer yuzidagi yetti mo'jizaning biri hisoblangan Olimpiyalik Zevs haykalini qaysi haykaltarosh yasagan edi?
☑ Fidiy
31. Qaysi haykaltarosh Minos degan podsho uchun mashhur Labirint saroyini barpo etgan edi?
☑ Dedal
32. Afinadagi qaysi bino yorug'lik tushishiga qarab o'z rangini oltin rangidan havorang yoki kulranggacha o'zgartirib, tuslanib turgan?
☑ Parfenon ibodatxonasi

## 31-32-Olimlar va mutafakkirlar (20)

### Savollar va javobi

1. Qaysi Yunon faylasufi Yer yuzidagi hamma narsa olovdan kelib chiqqan degan fikr tarafdori bo'lgan?
☑ Geraklit
2. «Bir daryoga ikki marta tushish mumkin emas», «Hamma narsa oqadi, hamma narsa o'zgaruvchandir» degan mashhur hikmatlar kimga tegishli bo'lgan?
☑ Geraklit
3. «Bizni qurshab turgan hamma narsa ko'zga ko'rinmaydigan mayda-mayda zarralar – atomlardan tashkil topgan» degan fikr muallifi qaysi faylasuf bo'lgan?
☑ Demokrit
